

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N ISOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni izchil davom ettirish, jumladan, boshqaruvni takomillashtirish, sohani rivojlantirishning kelgusi istiqbollari belgilash, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish orqali sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengaytirish maqsadida:

1. Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi **Salomatlik va strategik rivojlanish instituti** (keyingi o'rinlarda – Institut) etib qayta tashkil qilinsin.

2. Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari etib belgilansin:

sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yuqumli bo'lmagan kasalliklarga **qarshi kurashish hamda oldini olish** bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, aholining barqaror **tibbiy madaniyatini** shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

ilg'or va maqbul xorijiy tajriba asosida sog'liqni saqlash tizimi faoliyatining **ustuvor yo'nalishlari, o'rta muddatli va uzoq muddatli rivojlanish ssenariylari va strategiyalari** bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

tibbiy statistikasi shakllantirish va yuritish, statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishda xalqaro standartlar va metodikalarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, tibbiyot sohasidagi statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash borasidagi ishlarni takomillashtirish.

Belgilansinki, 2024-yil 1-yanvardan Institut va uning hududiy bo'linmalari xodimlari mehnatga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish shartlariga ko'ra, tegishli ravishda, **Sog'liqni saqlash vazirligi va uning hududiy boshqaruv organlari xodimlariga tenglashtiriladi.**

3. Sog'liqni saqlash vazirligi Institut bilan birgalikda **ikki oy muddatda 2024–2026-yillarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, to'g'ri ovqatlanishni tizimli targ'ib qilish va ommalashtirish dasturini** ishlab chiqsin va unda, jumladan, quyidagilarni nazarda tutsin:

sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan yiliga **25 tagacha** promo-rolklar, dastur va teleko'rsatuvlar tayyorlash;

uyali telefon foydalanuvchilariga kasalliklar profilaktikasi va sog'lom turmush tarzi asoslari bo'yicha **har kuni** qisqa xabarlar (SMS) yuborish;

jurnalistlar va boshqa matbuot vakillari o'rtasida har yili **“Sog'lom turmush tarzi bo'yicha yilning eng yaxshi targ'ibotchisi”** tanlovini o'tkazish;

bozorlar, samolyot, poyezd, avtobus, metro, supermarketlar va fuqarolar ommaviy yig'iladigan boshqa joylarda sog'lom turmush tarzi bo'yicha **rolklar** namoyish qilish, **radiomaslahatlar** taqdim qilish va **bukletlar** tarqatishni ta'minlash.

4. Sog'liqni saqlash vazirligi xalqaro tashkilotlar va xorijiy konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda **2023-yil yakuniga qadar** ilg'or xorijiy tajriba asosida quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratgan holda **“Aholi salomatligi – 2030” milliy strategiyasi** ishlab chiqilishini ta'minlasin:

aholini maksimal qamrab olgan holda **birinchi tibbiy-sanitariya xizmatini** unga yanada yaqinlashtirish;

fuqarolarning **sog'lom turmush tarzini**, sog'lom ovqatlanishini va jismoniy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularni aholi orasida har tomonlama targ'ib qilish;

onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholining bu boradagi ehtiyojlarini qondirish;

ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'lamini kengaytirish;

sog'liqni saqlash tizimini to'liq raqamlashtirish, qog'ozbozlikka, asossiz byurokratiyaga va navbatlarga chek qo'yish, aholiga tibbiyot muassasalariga murojaat qilganida qulayliklar yaratish;

zamonaviy va samarali **boshqaruv usullarini** joriy qilish va **tibbiy xizmatlar sifatini** oshirish;

kadrlar salohiyatini oshirish, tibbiy ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish;

xususiy sektorni rivojlantirish va **investitsiyalarni jalb qilish** hamda yirik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish;

tibbiyot muassasalarining **moddiy-texnika bazasini mustahkamlash**;

farmatsevtika tarmog'ini samarali tartibga solish.

5. Quyidagilar Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasiga o'tkazilsin:

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi;

2024-yil 1-yanvardan Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi.

6. Belgilansinki:

mazkur Farmonning 5-bandida ko'rsatilgan muassasalar Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasiga **mustaqil yuridik shaxs maqomi** hamda ular faoliyatini **moliyalashtirishning amaldagi manbalari va tartibini** saqlab qolgan holda o'tkaziladi;

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi **farmatsevtika sanoati** barqaror rivojlanishi uchun **javobgarlikni to'liq** zimmasiga oladi;

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasining kuzatuv kengashi tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida tibbiy xizmat ko'rsatish uchun jalb qilinadigan yetkazib beruvchilar (davlat va nodavlat)ni, xarid qilinadigan tibbiy yordamlar hajmini **mustaqil belgilaydi** va o'z byudjetini shakllantiradi;

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi **2027-yil 1-yanvardan** Sog'liqni saqlash vazirligi tarkibidan chiqadi va **mustaqil jamg'arma sifatida** faoliyat yuritadi;

Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga tashxis qo'yish va davolash bo'yicha tasdiqlangan standartlarga muvofiq tibbiy xizmatlarning bazaviy narxlarini **Sog'liqni saqlash vazirligi** tomonidan **iqtisodiyot va moliya vazirligi** hamda **Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi** bilan kelishgan holda belgilanadi;

sog'liqni saqlash vaziri va Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ijrochi direktori 2026-yilning yakuniga qadar tibbiy sug'urtaning respublika bo'yab to'liq joriy etilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

7. **2024-yil 1-yanvardan** Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida **quyidagilarni birlashtirish orqali yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi** (keyingi o'rinlarda – Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi) tashkil etilsin:

Onkogematologik va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga chalingan bemorlarni sog'lomlashtirishga ko'maklashish jamg'armasi;

Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg'armasi;

Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi;

Spinal mushak atrofiyasi tashxisi qo'yilgan bemor bolalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi.

8. Quyidagilar 2024-yil 1-yanvardan Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini **shakllantirish manbalari** etib belgilansin:

Davlat byudjetidan har yili ajratiladigan **350 milliard so'm** miqdoridagi mablag'lar;

spinal mushak atrofiyasi tashxisi qo'yilgan bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va **dori** vositalarini bepul yetkazib berish xarajatlari uchun Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar;

iqtidorli va malakali **tibbiyot mutaxassislarini** qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish uchun Davlat byudjetidan har yili ajratiladigan **50 milliard so'm** miqdoridagi mablag'lar;

Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi muassasalar va tashkilotlarning **bo'sh turgan binolari, ko'chmas mulk obyektlari va yer uchastkalarini** ommaviy savdolar (auksion)da sotishdan tushadigan mablag'larning respublika byudjetiga o'tkaziladigan **50 foizi**;

Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi muassasa va tashkilotlarning mol-mulkini ijaraga berishdan tushadigan **tushumlarning**, Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining operatsion xarajatlarini chegirib tashlagan holda, mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan **100 foizi**;

xalqaro moliya institutlarining, hukumat va nohukumat tashkilotlarning **grantlari va texnik ko'mak mablag'lari**;

G'aznachilik xizmati qo'mitasi tomonidan Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasining vaqtincha bo'sh mablag'larini **tijorat banklari depozitlariga** joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning **homiyluk xayriyalari**;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan **boshqa manbalar.**

9. Belgilansinki, **Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari quyidagilarga sarflanadi:**

sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining **moddiy-texnika bazasini** mustahkamlash, dasturiy mahsulotlar sotib olish va axborot-kommunikatsiya tarmoqlariga texnik xizmat ko'rsatish;

tibbiy asbob-uskunalar, kompyuterlar, planshetlar, multimedia va tarmoq qurilmalari, dasturiy ta'minotlarni **xarid qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini** keng joriy qilish va rivojlantirish;

sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining **xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash**, shuningdek, o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun **xorijiy mutaxassislarni** jalb etish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish;

sog'liqni saqlashni boshqarish organlari, shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi muassasalar va tashkilotlarning **kadrlar salohiyatini** mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirish;

onkogematologik va davolash qiyin bo'lgan kasalliklar bo'yicha **yuqori texnologik murakkab operatsiyalarni** amalga oshirish uchun **mutaxassislarni**, shu jumladan, **xorijiy mutaxassislarni jalb qilish**;

mahalliy va xorijiy ekspertlar va konsalting tashkilotlarini jalb qilish, sog'liqni saqlash sohasidagi **keng ko'lamli vazifalarni** amalga oshirish maqsadida ekspertlik guruhi faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish;

onkogematologik va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun tegishli tibbiyot muassasalarini **kapital va joriy ta'mirlash, qurish va rekonstruksiya qilish**, ularga asbob-uskunalar, dori vositalari, tibbiy buyumlar, laboratoriya reaktivlari va boshqa sarflash vositalarini xarid qilish;

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat asosida og'ir kasallikka chalingan **yetim bolalar va ota-ona**

qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning respublikada amalga oshirilmaydigan jarrohlik amaliyotlarini xorijiy mamlakatlarda o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;

onkogematologik va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga chalingan bemorlarga respublika hududidagi **davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlarining** yuqori texnologik tashxis va davolash-profilaktika xizmatlarini xarid qilish xarajatlarni qoplash;

Sog'liqni saqlash vazirligi tizimi xodimlarini **o'qitish, qayta tayyorlash va stajirovkasini** tashkil etish, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarga tashriflarini, O'zbekiston hududidan tashqarida o'tkaziladigan konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishini, xizmat safariga yuborilishini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;

oliy va o'rta tibbiyot ta'lim muassasalarining **iqtidorli talabalariga maxsus stipendiyalar** to'lashga sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish;

Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi va uning direksiyasi, shuningdek, Institut va uning hududiy bo'linmalari faoliyatini tashkil etish va **qo'llab-quvvatlash** bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;

Sog'liqni saqlash vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan boshqa tadbirlarni hamda **sog'liqni saqlash sohasida** olib borilayotgan **islohotlarni** amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish.

10. **2024-yil 1-yanvardan** Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparati tuzilmasida vazirlik boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni doirasida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan **Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi direksiyasi** tashkil etilsin.

11. Belgilansinki: Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi mazkur Farmonda nazarda tutilgan birlashtirilayotgan jamg'armalarning **barcha majburiyatlari va daromadlar manbalari** bo'yicha **huquqiy vorisi** hisoblanadi;

Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari uning kuzatuv kengashi qaroriga asosan, **qat'iy ravishda** ushbu Farmonda ko'rsatilgan **yo'nalishlarga** sarflanadi;

Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasining joriy moliya yilida **foydalanilmagan (o'zlashtirilmagan) mablag'lari** keyingi moliya yiliga o'tkaziladi.

12. Sog'liqni saqlash vazirligi va Adliya vazirligi **bir oy muddatda Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizomni** hamda uning kuzatuv kengashi tarkibini tasdiqlasin.

Bunda Tibbiyotni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflashning **shaffof tartibini**, uning daromadlari va xarajatlari to'g'risida hisobdorlikni, shuningdek, faoliyatining **ochiqligi va oshkorligini** ta'minlash masalalarini nazarda tutish.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

14. Sog'liqni saqlash vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda **bir oy muddatda** qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin.

15. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri A.Sh. Inoyatov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 6-sentabr

HARBIY MUOMALA MADANIYATI – QUDRATLI JANGCHI MAJBURIYATI!

Xabaringiz bor, Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari o'rtasida milliy muomala madaniyatini yuqori pog'onaga ko'tarish, sohada harbiy atamalardan to'liq va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, xususan bugungi kunda vazirlik tizimida harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, komandirlarning (boshliqlarning) bo'ysunuvchilariga, bo'ysunuvchilarning o'z komandiriga (boshlig'iga) murojaat etish, salomlashish tartibi eksperiment tariqasida sinovdan o'tkazilmoqda.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, harbiy xizmatchilar, shaxsiy tarkib ongida "Meniki" degan tuyg'uni (*mening komandirim, mening safdoshim va h.k.*) shakllantirish, jamoalar o'rtasida hamjihatlik va do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashdan iborat.

Aytish mumkin ki, bunday islohotlar butun dunyo armiyalari hayotida kechayotgan jarayondir. Chunki doim xushmuomalada bo'lish va yuksak ehtirom ko'rsatish – bu qadimiy munosabatlarning eng muhim va unutilib bo'lmagan qoidalaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, salomlashish odobini ayni shu jihatning ibtidosi sifatida qabul qilish mumkin.

Biz ayrim mulohazalar orqali bu kabi muomala madaniyatining qadimiy ildizlariga murojaat qilishni lozim topdik.

Qadim zamonlardan beri dengizda to'qnash kelgan harbiy kemalar, millatidan qat'i nazar, bir-birlarini bayroqlar bilan yoki o'q otib salomlashishlari odat tusiga kirgan. Dengizda to'pdan o'q otish bilan salomlashish birinchi marta Angliya tomonidan XV asrning oxirida kiritilgan.

Aytishlaricha, antik davrda – suiqasdlar odatiy holga aylangan bo'lib, fuqarolar quroli yo'qligini ko'rsatish uchun o'ng qo'llarini ko'tarib, amaldorlarga yaqinlashishlari kerak edi. Zamonaviy harbiy salomlashishning kelib chiqishi miloddan avvalgi 509-yilda Rim Respublikasida vujudga kelgan, degan taxminlar ham yo'q emas. Aynan shu xatti-harakatlar harbiycha salomlashishning tarixiy asoslari bo'lishi mumkin, degan qarashlar shu zaylda paydo bo'ldi.

O'rta asrlarda ritsarlar bir-birlari bilan salomlashish uchun dubulg'alarini boshlaridan yechgan holda, yuqoriga ko'targanlar. O'ng qo'lni qalpoq yoki peshonaga ko'tarish nafaqat hurmat belgisi, balki qurol ishlatmasligingizning belgisi hamdir.

Boshqa bir manbada esa Rim askarlari o'z qo'mondonlariga hurmat belgisi sifatida o'ng qo'llarini ko'ksiga qo'yadilar yoki peshonalariga yaqin olib boradilar. Bu "salutatio" deb nomlanuvchi amaliyot keyinchalik harbiycha salomlashishga yo'l ochgan bo'lishi mumkin.

O'tmishga nazar tashlasak, 1600-yillarga kelib, ingliz harbiy



manbalarida salomlashish haqida eslatib o'tilib, u "bosh kiyimni yechish kerak bo'lgan" rasmiy harakat sifatida ta'riflangan. Keyinchalik bu hol 1745-yilda qo'shinlar jangovar holatga o'tayotganda qo'llarini shlyapalariga tirab, ta'zim qilishlari uchun o'zgartiriladi.

Darvoqe, bu kabi odatlar ayniqsa harbiy tizimda ham borgan sari takomillashib, vaqt o'tgan sari o'zgarib bordi. Hatto dunyoning zamonaviy armiyalarida ham o'zaro muomala madaniyati, murojaat shakllari hurmat, intizom va do'stlik timsoliga aylandi.

Masalan, Britaniya armiyasi nizomlarida harbiylarning bir-birlari bilan xushmuomalada bo'lishi armiyaning eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida qaraladi. Boshqalarni hurmat qilish siz va jamoadoshlaringiz o'rtasida bo'lishi kerak bo'lgan ishonchning bir qismidir.

AQSh armiyasi kodekslarida ham o'zaro muomala madaniyatiga alohida urg'u beriladi. Xususan, Askarlar kodeksida "boshqalarga hurmat va yana hurmat bilan munosabatda bo'lishga" va'da berish bandlari ham mavjud. Ya'ni hurmat – bu boshqa odamlarning eng yaxshi tomonlarini qadrlashimizga imkon beradigan narsa. Hurmat bu barcha odamlar o'z vazifalarini vijdonan bajarganliklariga ishonishdir. O'z-o'zini hurmat qilish bu armiyadagi hurmatning muhim tarkibiy qismidir.

Milliy armiyamizda ham harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro ishonch va sodiqlik an'analari muhim rol o'ynaydi. Shularni inobatga olgan holda, taklif etilayotgan murojaat shakllarida ana shu kabi muhim jihatlar hisobga olindi.

Xususan, harbiy xizmatchilarning yangi murojaat etish, salomlashish tartibi eksperiment tariqasida sinovdan o'tkazilmoqda. Unga ko'ra, taklif etilayotgan murojaat etish tartibi quyidagicha:

I. Bo'ysunuvchilar o'z qo'mondon (komandir)lariga yoki boshliqlariga nisbatan:

- "Mening qo'mondonim! Shaxsiy tarkib bayram munosabati bilan saflandi".
- "Mening qo'mondonim! Buyrug'ingizga binoan, bo'linmalar dala maydoniga yuborildi".
- "Qo'mondonim! Barcha bo'linmalar vazifa bajarishga tayyor".
- "Mening komandirim! Serjant Ahmedov buyrug'ingizga binoan, yetib keldi".
- "Komandirim! Men, leytenant Salimov xizmat safaridan keldim".
- "Mening sardorim! Buyrug'ingizga binoan, kapitan Quvvatov xizmat safariga yuborildi".
- "Sardorim! Shaxsiy tarkib mashg'ulotga tayyor".

II. Bo'ysunuvchilar o'z boshliqlariga nisbatan:

- "Generalim! Murojaat etishga ruxsat bering".
 - "Polkovnigim! Belgilangan shaxsiy tarkib saflandi" va hokazo.
- Murojaatlardan ko'rinib turibdiki, o'zaro muloqotlarda samimiylik, yaqinlik, yuksak hurmat ifodalari o'z aksini topgan. Bu harbiy faoliyatni o'tashda, bilim va amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirishda harbiy xizmatchi ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, boshliq va bo'ysunuvchi o'rtasidagi munosabatlarning yanada mustahkamlanishiga yo'l ochishi shubhasiz.

Zero "Qutadg'u bilig" asarida qo'shin yaxshi xulqli, ko'ngli ochiq sarkardani ma'qul ko'rishi, aksincha, tili achchiq, jaholatli kishi askarni o'zidan qochirishi, lashkarboshining salobatli, xushro'y, nomi chiqqan, dong'i ketgan, mashhur bo'lishiga alohida diqqat qaratilgan. Zotan, muloyim, shon-shuhratli kishi ortidan lashkar ahli ergashadi, unga ishonadi, buyrug'ini bekam-u ko'st bajarishi ham amaliy, ham nazariy jihatdan isbotlangan hodisadir.

Katta leytenant
Bobur ELMURODOV,
«Vatanparvar»

BARCHASI

sodiq xizmatlari uchun!

Davlatimiz Mustaqilligining 32 yillik shodiyonasi katta serjant Islom Esonov uchun qo'shaloq xushxabarni olib keldi. Prezidentimiz farmoniga binoan, davlatimizning yuksak mukofoti – “Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan taqdirlangan bo'lsa, Mudofaa vazirligi rahbariyatining tegishli buyrug'iga ko'ra, navbatdagi “katta serjant” harbiy unvoniga ega bo'ldi.



Bugun Qurolli Kuchlarimiz saflarida har tomonlama toblangan, yuksak bilim-salohiyatli kadrlar xizmat qilmoqda. Ular har qanday topshiriqni xoh kun bo'lsin, hoh tun o'z vaqtida, a'lo darajada ado etish ko'nikmasiga ega. Ana shu safda sharaf bilan xizmat qilayotgan katta serjant Islom Esonovning taassurotlari, xizmat faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida oila davrasi va safdoshlari huzurida bo'ldik.

Qahramonimiz aloqa tayyorgarligi mutaxassisi va ayni vaqtda Toshkent harbiy okrugiga qarashli harbiy qismlarning birida yo'riqchi serjant sifatida hamkasblari bilan bor bilim-u tajribalarini o'rtoqlashib, ichgan ontiga sadoqat bilan xizmat qilib kelmoqda.

– O'g'lim telefon qilib, qo'shaloq xushxabarni yetkazganida, ich-

ichimizdan xursand bo'lib ketdik, – deydi qahramonimizning otasi Abdujabbor Esonov. – O'g'limizning el-yurt tinchligi yo'lidagi kamtarona xizmatlari yuksak qadrlanganidan sevindik. Buning uchun davlatimiz rahbariga cheksiz minnatdorlik bildiramiz. U yoshligidan harbiy bo'lishni xohlardi va shunga harakat qilardi. Bolalik vaqtlari oyoqlariga qo'shimcha yuk olib, balandliklarda yugurardi. Vaqt o'tgan sari uning sportga, harbiylikka bo'lgan intilishi oshib bordi. Yolg'iz o'g'lim bo'lsada, Vatan himoyasi yo'lida yaqinlari, oila bag'ridan olisda bo'lishi bizni tashvishga solmagan. Biz uchun eng asosiysi uning kelajakda jamiyatimizda o'z o'rnini topishi edi. 2003-yilda muddatli harbiy xizmatga jo'natdik. Bir yildan so'ng Serjantlar tayyorlash maktabini tamomlab, harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha davom ettirdi. U bugungi kunga qadar harbiylik nomiga munosib bo'lishga intilib kelmoqda. Men bir ota sifatida shunday o'g'lim borligidan faxrlanaman. Uning bundan keyin ham bor kuch va salohiyatini ishga solib, xalqimiz osoyishta hayotini ta'minlash yo'lida mardonavor xizmat qilishiga ishonaman.

Xizmat faoliyatini bundan 20 yil avval boshlagan katta serjant Islom Esonovning yangi bilimlar olishga, sohaning sir-asrorini yanada puxta o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqi bir on bo'lsin so'nmagan. Buni shogirdlaridan biri kichik serjant Dilmurod Xudoyberganov shunday ta'riflaydi:

– Ustozimiz katta serjant Islom Esonov xizmat faoliyati davomida ishining ustaligi, talabchanligi, o'z mahorati ustida tinimsiz ishlashi bilan shaxsiy namuna ko'rsatib kelmoqda. O'z bilganlarini safdoshlariga o'rgatib, bilmaganlarini o'rganish harakatida bo'ladi. Armiyamiz saflariga yangi kelgan o'g'lonlar bilan yillar davomida o'rtirilgan tajribalarini bo'lishadi.

Sohada qandaydir yangilik bo'lsa, shuni o'rganishga harakat qiladi. Vaqtni qadrlaydi. Ustozimizni chin ma'noda davlat mukofotiga loyiq inson deb bilaman. Bundan tashqari, oilaparvarligi, farzandlari ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishi bilan hurmatga sazovor. Bir so'z bilan aytganda, nafaqat harbiy, balki inson sifatida ham o'rnak olsa arziydi.

– Albatta, bu yutuq ortida nafaqat mening kamtarona mehnatlarim, balki ota-onam, ustozlarim, safdoshlarim va yaqinlarimning ham salmoqli hissasi bor. Otam farzandlar tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratardi. Oilada mas'uliyatli, kezi kelganda qattiqqo'l va talabchanlik qilardi. Bu biz, farzandlarga yanada mas'uliyat yuklardi. Doimo bor kuchimizni bilim olishga, vaqtimizni behuda sarflamaslikka qaratganmiz. Men ham ota-onamning bergan tarbiyasiga munosib bo'lishga, oilamni qadrlashga harakat qilib kelmoqdaman. Chunki oilangiz, yaqinlaringiz tinch-omon bo'lsa, halovatingiz, qilayotgan ishingizda natija bo'ladi. Vatanimiz oldidagi burchimizni doimo sidqidildan bajarishga intilamiz. Biz, harbiylarga bo'layotgan e'tibor, yaratib berilayotgan shart-sharoitlarni ishonch bilan oqlashga harakat qilamiz. Mustaqilligimiz arafasida menga ko'rsatilgan e'tibordan boshim ko'kka yetgudek bo'ldi. Hali ham hayajonim ichimga sig'mayapti. Bu keyingi xizmat faoliyatimda o'z ta'sirini ko'rsatadi, albatta. Oldimizga qo'yilgan yuksak vazifalarni yanada g'ayrat va sidqidildan bajarishga harakat qilaman.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugun milliy armiyamiz saflarida katta serjant Islom Esonov kabi jonkuyar, mard va fidoyi o'g'lonlar bisyor. Ular bor ekan, osmonimiz musaffo, sarhadlarimiz mustahkam.

Ro'ziqul OCHILOV,
«Vatanparvar»

HARBIY MEROS

KONSEPSIYASI ZARUR

2021-yil 1-dekabrda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida harbiy ilm-fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. Unda buyuk ajdodlarimizning boy harbiy merosi, boshqaruv va sarkardalik mahoratini o‘rganish, harbiy sohadagi xalqaro, mintaqaviy va milliy xavf-xatarlarni tizimli tahlil qilish, zamonaviy qurolli mojarolar xususiyatlarini tadqiq etgan holda, harbiy san‘atni rivojlantirish hamda harbiy jamoalarda psixologik muhitni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishga oid vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti tashkil etilib, unga qarashli markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Galdagi muhim vazifa – ilmiy maktab yaratish borasida qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Ma‘lumki, katta davr mobaynida shonli va boy tariximiz siyosiy o‘zgarishlar va mafkuralashgan sovet davrini boshdan kechirdi. Yurtimizdan yetishib chiqqan, jahon harbiy san‘atiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk sarkardalarimizga salbiy baho berilgan va hanuzgacha ilmiy asosda kompleks o‘rganilish yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa mamlakatimizda Milliy harbiy merosni o‘rganishni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va unda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda harbiy-ilm fanni tizimli taraqqiy ettirish uchun ustuvor vazifalarni belgilab olish dolzarbligini ko‘rsatadi. Chunki ushbu soha tizimli o‘rganilmagani bois quyidagi yechimini topishi zarur bo‘lgan masalalar yig‘ilib qolgan edi:

– milliy harbiy merosni o‘rganishning aniq maqsad va vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari hamda rivojlanish bosqichlari belgilab olinmagan, bu esa, o‘z navbatida, ilmiy izlanishlarning sust olib borilishiga olib keldi;

– tadqiqotlar tor yo‘nalishlar va tarqoq holda bajarib kelinmoqda, ushbu soha bo‘yicha ilmiy maktablar shakllantirilmagan;

– xalqaro miqyosda davlatimizning obro‘-e‘tiborini yuksaltirish, harbiy merosimizni ommalashtirish, uning ilmiy targ‘iboti, harbiy tarix sohasidagi izlanishlarni xalqaro tajriba asosida rivojlantirish yo‘lga qo‘yilmagan;

– ilmiy dalillar bilan boyitilgan haqqoniy harbiy tarixiy bilimlar asosida harbiy-vatanparvarlikni shakllantirishda zamonaviy va ilg‘or xalqaro tajribaga yetarlicha e‘tibor berilmagan;

– harbiy tarixni o‘rganishda sohalar integratsiyasi bo‘yicha ishlar amalga oshirilmadi, jumladan arab, fors va boshqa xorijiy tillarni o‘zlashtirgan mutaxassislar harbiy tarix bilan maqsadli shug‘ullanmagan;

– oliy (*harbiy*) ta‘lim tizimida harbiy merosimizni o‘qitish eskicha yondashuv asosida olib borilmoqda, o‘quv adabiyotlariga harbiy meros bo‘yicha amalga oshirilgan yangi tadqiqotlarning ilmiy yechim va xulosalari, natijalari joriy etilmagan;

– ommaviy axborot vositalarida harbiy merosimizning beqiyos o‘rnini o‘rganish va targ‘ib etishga talab darajasida ahamiyat berilmagan.

Milliy harbiy merosni o‘rganishni rivojlantirishdan asosiy maqsad va vazifalar harbiy ilm-fan sohasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlarni olib borish, ilmiy maktablarni yaratish, qolaversa, harbiy xizmatchilar, yoshlarni ajdodlarimizning boy harbiy merosimizni ilmiy o‘rganish asosida Vatanga sadoqat va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Ustuvor yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

• Vatanimizning qadimdan to zamonaviy davrgacha harbiy merosini tarixiy manbalar bilan ilmiy asosli yoritgan fundamental tadqiqotlar ko‘lami va sifatini tubdan yaxshilash;

• milliy harbiy merosimizni noyob o‘tmish tajribasi asosida chuqur va ilmiy asosli o‘rganish, xalqimiz va xalqaro jamoatchilikka uzluksiz yetkazib borish, ommalashtirish;

• buyuk sarkardalar Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa sarkardalarning taktika va strategiyalari, milliy va jahon harbiy san‘atiga qo‘shgan hissasini o‘rganish;

• milliy harbiy merosni o‘rganishni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari negizida 2030-yillargacha tizimli ilmiy izlanishlarni olib borish;

• milliy va jahon tajribasiga asoslanib, harbiy tarixchi mutaxassislarni tayyorlash;

• milliy harbiy meros ilmiy maktablarini shakllantirish;

• o‘rta maxsus, oliy, oliy harbiy ta‘lim muassasalarida milliy harbiy merosimizni uzviylik va uzluksizlik

asosida maqsadli va tizimli o‘rganishga erishish;

• yosh avlod ongiga harbiy-vatanparvarlik ruhini singdirish, buyuk ajdodlarimizning qahramonliklarini tarixiy manbalar asosida o‘rganish;

• buyuk ajdodlarimizning vatanparvarligi, mardligi va jasoratini keng ommalashtirish, bunda “Buyuk sarkardalarning jang san‘atini ilmiy namoyish qilish” kabi amaliy loyihalarga asosli takliflar ishlab chiqish, yoshlarning tarixiy va harbiy bilimni boyitish, vatanparvarlik va milliy iftixor ruhida tarbiyalash, shuningdek yurtimizning turistik salohiyatini oshirish;

• “O‘zbekiston tarixi” telekanali orqali “Milliy harbiy meros” nomli maxsus dastur namoyish etish, bunda



ko‘rsatuvlarning ilmiyligi, sifatini oshirish bu boradagi ta‘sirchan mexanizmlar kuchaytirilishi va ommalashishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ilg‘or va yangicha yondashuvlarni o‘zida aks ettirgan muqobil o‘quv adabiyotlarini ishlab chiqish, “O‘zbekiston milliy harbiy merosi” ensiklopediyasining yaratilishi, milliy harbiy meros yo‘nalishidagi jurnallarning xalqaro elektron nashrini yo‘lga qo‘yish, xalqaro bazalarda indeksatsiya qilish, impakt faktor olish ishlari ijrosini ta‘minlash, milliy harbiy merosimizdagi tarixiy ahamiyatga molik mavzularda fundamental ilmiy nashrlar, animatsion, multimedia mahsulotlarini yaratish va maxsus veb-saytlar orqali joylashtirish, milliy harbiy meros bo‘yicha tizimli tadqiqotlarni rivojlantirish va uzviy bog‘liqlikni ta‘minlashda oliy (*harbiy*) ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda milliy harbiy san‘at tarixi va rivojlanishi o‘quv dasturlarini bakalavriat va magistratura bosqichiga joriy etish, Milliy harbiy tarix komissiyasini tashkil qilish va YUNESKO qoshidagi xalqaro harbiy tarix komissiyasiga a‘zo bo‘lish

talab etiladi. Xalqaro ilmiy uyushma (*assotsiatsiya, qo‘mita*)lar imkoniyatlari (*manbalar, arxiv, artefaktlar, ilmiy ishlanmalar*), komissiyaning axborot va arxivlaridan keng, imtiyozli ravishda foydalanish, “Harbiy meros” (*uch tilda*) internet portali (*veb-saytini*) yaratish tadqiqotlar natijalarini moliyalashtirish, ommalashtirishga yordam beradigan mexanizmlardir.



Milliy harbiy merosimizni tizimli o‘rganish natijasida quyidagi natijalarga erishiladi:

• qadim, boy va noyob harbiy merosimizni milliy va xorijiy darajada targ‘ib etishning yangicha va samarali tizimi yaratiladi. Milliy harbiy merosni tadqiq va tahlil etish butunlay yangi, milliy manfaatlarimizga mos, tarixiy manbalar asosida amalga oshiriladi;

• harbiy tarixiy bilimga ega, ijodiy fikrlaydigan, harbiy-vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan harbiy tarixchi mutaxassislar ilmiy maktabi shakllanadi;

• milliy harbiy meros tarixi sohasida ilmiy faoliyatni maqsadli va tizimli yo‘lga qo‘yish imkoni yaratiladi;

• oliy (*harbiy*) ta‘limda mutaxassislar tayyorlashning ilmiy muassasalar bilan uzviy bog‘langan tizimi yaratiladi;

• harbiy tarixga oid ilmiy, ilmiy-ommabop, uslubiy nashrlar milliy axborot makoni uchun o‘ziga xos manba vazifasini o‘taydi.

Zamonaviy davrda O‘zbekistonda harbiy merosimizning ayrim umumiy muammolari doirasida sanoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo muammo tizimli o‘rganilmagan. Buyuk sarkardalarning harbiy mahoratini tarixiy manbalar asosida ilmiy tadqiq va tahlil etish, ularni milliy harbiy merosimizda tutgan o‘rniga haqqoniy baho berish bugungi harbiy tarixning muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Bunga yechim sifatida “Milliy harbiy merosni o‘rganishni tizimli amalga oshirish konsepsiyasi” ishlab chiqilishi zarur. Konsepsiyani amalga oshirish O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tarkibini kuchli iroda va faol hayotiy pozitsiyaga ega, sadoqatli, vatanparvar, adolatli, jasur va mard yoshlar, malakali harbiy kadr va mutaxassislar bilan ta‘minlashga, xalqaro miqyosda esa davlatimizning obro‘-e‘tiborini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ozoda RAHMATULLAYEVA,
Qurolli Kuchlar Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

YANGI XONADONLAR TOPSHIRILDI

O'z hayotini Vatan himoyasidek sharaflı va mas'uliyatli kasbga bag'ishlagan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitini yaxshilashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.



Shu maqsadda soha vakillari bosqichma-bosqich uy-joylar bilan ta'minlanayapti. Jumladan, Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi harbiy xizmatchilar uchun

yangi uy-joylar tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.

Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, tuman hokimligi, nuroniylar ishtirok etgan tadbirida mamlakatimizda Qurolli Kuchlar salohiyatini mustahkamlash, harbiylar

va ularning oila a'zolarini ijtimoiy muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi. Shundan so'ng zamonaviy ikkita 5 qavatli turarjoy binosidan 70 ga yaqin yangi xonadonning kalitlari o'z egalariga topshirildi.

Shinam, yorug' 3 xonali xonadonda barcha sharoitlar mujassam. Bu, avvalo, xonadon bekalarini yanada mamnun etdi. Tadbirida yangi xonadon egalari qutlandi, nuroniylar har bir oilada xursandchilik, to'ylar bo'lsin, yurtimiz osoyishtaligiga ko'z tegmasin, deb duo qildi.

KELAJAGIMIZ EGALARI

BAXMALDA YOSHLAR VA QO'MONDON

Mamlakatimiz bo'ylab hududlarda "Qo'mondon va yoshlar" hamda "Rahbar va yoshlar" uchrashuvlari ko'tarinki ruhda o'tkazib kelinmoqda. Xususan, Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi eng olis hudud, "Obod mahalla" dasturi asosida yangilanayotgan Yangi bog' mahallasida Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Farrux Ziyaboyevning navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

olish to'g'risida berilgan ma'lumotlar yoshlarning yurt himoyachisi bo'lish, Vatanga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat

Quvonarlisi, oliy harbiy bilim yurtlarida tahsil olish istagini bildirgan yoshlarga boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirishi



Baxmal tumani hokimi Muso Anorboyev hamrohligida samimiy va ko'tarinki kayfiyatda o'tgan uchrashuv mahalladagi o'zgarishlar qatorida yoshlarga berilayotgan e'tibor, imtiyoz va imkoniyatlardan

keng foydalanish milliy armiyamiz safida xizmat qilish istagini yanada oshirishga qaratildi.

Uchrashuvda qo'mondon tomonidan Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilish va oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil

qilish hissini uyg'otgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Tadbirida yoshlarning harbiy sohaga oid savol va murojaatlari atroflicha o'rganilib, tegishli mutaxassislar tomonidan kerakli tushunchalar berildi.

uchun harbiy qism va muassasalardagi harbiy xizmatchilar birlashtirildi va ular uchun mashg'ulotlar tashkil etishi belgilab olindi. Uchrashuvdan so'ng mahalla yoshlari o'rtasida sport musobaqalari, ko'rik-tanlovlar, psixologik trening mashg'ulotlari tashkil etilib, g'olib va sovrindorlarga tuman hokimligi hamda okrug qo'mondonligining esdalik sovg'alari topshirildi.

Shu kuni Yangi bog' mahallasi ahli uchun Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda harbiy-vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi. Unda harbiy xizmatchilarning qo'l jangi, faxriy qorovulning saf chiqishlari namoyish qilindi, taniqli san'atkorlar, harbiy orkestrning ona Vatanni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlari yangradi.

SAXOVAT VA KO'MAK

Toshkent viloyatining Ohangaron shahrida joylashgan "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyida Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent viloyatidagi harbiy qism ishchi guruhi tomonidan xayriya tadbiri o'tkazildi.



Davlat va jamoat tashkiloti vakillari ishtirok etgan tadbirda ko'ngli yarim insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatildi, ularga zarur maishiy texnikalar taqdim etildi. Davolanuvchilar uchun bayram dasturxonini yozilib, harbiy orkestr jamoasi tomonidan konsert dasturi namoyish etildi.

Shu kuni ishchi guruh tomonidan Toshkent va Olmaliq shahrida xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga ham moddiy va ma'naviy ko'mak berildi.



KARMANADA UCH AVLOD

UCHRASHUVI

Mudofaa vazirligiga qarashli Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi harbiy qismda "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida o'tkazilgan tadbirga nuroniylar, Qurolli Kuchlar faxriylari, yoshlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari taklif qilindi.



Tuman madaniyat uyining xonanda-yu sozandalarining Vatan va mustaqillikni madh etuvchi kuy-qo'shiq va she'rlari bilan boshlangan tantana yoshlar va harbiy xizmatchilar farzandlarining ko'ngilochar o'yinlari va sport musobaqalariga ulandi.

Shundan keyin uch avlodning samimiy muloqoti boshlandi. Unda

nuroniylar, yoshlar va bir guruh harbiy xizmatchilar so'zga chiqib, mustaqillik, yurtga sadoqat, fidoyilik, harbiy xizmat mashaqqatlari, milliy armiyamizdagi o'zgarishlar haqida fikr yuritdilar.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuv yakunida qizg'in bahslar bilan kechgan sport musobaqalari va tanlovlarning g'olib hamda sovrindorlari munosib rag'batlantirildi.

FARG'ONALIK O'QUVCHILAR UCHUN

Mudofaa vazirligiga qarashli Farg'ona shahrida joylashgan harbiy qismga birlashtirilgan 44-umumta'lim maktabida sobiq qahramon Amir Temur va sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va jasoratlarini o'zida mujassam etgan tematik o'quv sinflari foydalanishga topshirildi.



Ulug' ajdodlarimiz shaxsi, qahramonligi, sarkardalik mahorati, jang san'ati va boshqa ko'plab ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan mazkur sinflarning ochilish marosimida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar ishtirok etdi.

Maktabga harbiy qism qo'mondonligi tomonidan esdalik sovg'alar, tarixiy adabiyotlar,

videomateriallar topshirilar ekan, yoshlarning yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, katta maqsadlar sari dadil qadam bosishlari, ulug' ajdodlarning ishlarini davom ettirishlari lozimligi ta'kidlandi.

Shundan keyin harbiy qismning bayroqdor guruhi, faxriy qorovul, harbiy orkestr jamoasi va qo'l jangi ustalarining ko'rgazmali chiqishlari namoyish etildi.



ULAR HAMISHA ELIMIZ ARDOG'IDA

Mardlik, jasorat, yurtga fidoyilik kabi xislatlar Vatan himoyachisi kasbini tanlagan insonlarning xos xususiyatidir. Shuning uchun ham ular mashaqqatlardan tap tortmaydilar, zarur bo'lganda jonlarini fido qiladilar. Shuning uchun ular hamisha elimiz ardog'ida, xotirasida.



Farg'ona viloyatining Oltiariq tumani Borbaliq qishlog'ida qahramon o'g'lon marhum Elmurod Abdullayevning, Rishton tumanida yana bir jasur o'g'lon marhum Zokirjon Ahrorqulovning yaqinlari yashaydi. Farg'ona viloyatida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism harbiy xizmatchilari va harbiy prokuratura xodimlari bu ikki xonadonda

bo'lib, xizmat vazifalarini bajarish vaqtida halok bo'lgan yigitlarning oila a'zolari holidan xabar oldilar.

Samimiy muloqot davomida marhumlarning safdoshlari bilan kechgan kunlari, fazilatlarini, jasurliklari yodga olindi. Ota-onalariga sovg'alar va oziq-ovqat mahsulotlari taqdim etildi.

JALOLIDDIN MANGUBERDI —

JASORAT VA SHIJOAT MAKTABI



Xorazm viloyatining markazi bo'lmish Urganch shahrida el-yurt istiqloli uchun kurashgan, bunga o'z hayotini bag'ishlagan ajdodimiz nomini ulug'lash, o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida yangidan bunyod etilgan Jaloliddin Manguberdi harbiy akademik litseyi tantanali tarzda foydalanishga topshirildi.

Harbiylashtirilgan ta'lim muassasasining tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, Xorazm viloyati hokimi Jo'rabek Rahimov, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov, davlat va jamoat tashkilotlari hamda kuch tuzilmalari vakillari, nuroniylar, Qurolli Kuchlar faxriylari, o'quvchilar va ularning yaqinlari ishtirok etdi.

Xorazm viloyati hokimi tantanali marosimdagi nutqida keyingi yillarda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari uchun malakali kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, shu maqsadda joriy yilning 12-iyun sanasida Prezidentimizning "Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinganini aytib o'tdi.

Ta'kidlash joizki, ushbu qarorga muvofiq, yoshlarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyati va jismoniy tayyorgarligini yanada rivojlantirish maqsadida Urganch shahridagi Xalq so'zi ko'chasi ilgari bo'sh turgan



hududida zamonaviy loyiha asosida 300 o'rinli harbiy akademik litsey barpo etildi.

Tadbir davomida so'zga chiqqan mudofaa vazirining o'rinbosari yurtimizda buyuk sarkarda bobomiz Jaloliddin Manguberding xotirasini abadiylashtirish va ulug'lash, uning vatanparvarligi, jasorati va matonati

Joriy mavsumda ilk o'quvchilardan 50 nafari xorazmlik yoshlar bo'lib, ular o'qishga kirish ko'rsatkichining eng yuqori pog'onasidan joy oldi. Ikkinchi pog'onani 22 nafar o'qishga kirgan yosh bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi egalladi. Bu borada eng kam ko'rsatkichni Toshkent shahri qayd etib, bu mavsumda 1 nafar toshkentlik o'quvchining o'qishga

qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti birlashtirilgan bo'lib, ular bilan ta'lim va tarbiya jarayonlarida malaka va fikr almashish, amaliy yordam ko'rsatish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Jaloliddin Manguberdi harbiy akademik litseyida 12 mingdan ziyod elektron va 4 mingga yaqin badiiy adabiyot fondiga ega bo'lgan shinam kutubxona, Jaloliddin Manguberdi muzeyi, yopiq turdagi sport zali hamda ochiq maydondagi sport shaharchasi, saf maydoni, oshxona, 4 qavatli yotoqxona, internet global tarmog'i, Urganch davlat universiteti hamda kitob.uz internet saytiga ulangan zamonaviy kompyuter xonalari, kir yuvish va isitish majmualari-yu texnikalarni saqlash joylari



yosh avlod ongiga chuqur singdirish ishlari faxr-iftixor bilan davom ettirilayotganiga alohida urg'u berdi. Mazkur ta'lim muassasasini tamomlagan bitiruvchilarga mamlakatdagi oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda o'zlari to'plagan ballning 30 foizi miqdorida, boshqa oliy ta'lim muassasalariga esa 15 foiz miqdordagi qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyozlar belgilangani ushbu dargohda o'qigan yoshlar uchun katta imkoniyat ekanini ta'kidlab o'tdi.

Mazkur ta'lim muassasasining birinchi bosqichida o'qishga kirish uchun jami 975 nafar yosh hujjatlarini topshirgan bo'lsa, shundan 24 nafari o'z xohishiga ko'ra, boshqa ta'lim dargohida o'qish istagini bildirib, hujjatlarini qaytarib olgan. Yana 83 nafari tibbiy komissiya xulosasiga ko'ra, o'qishga yaroqli emas deb topilgan. Test sinovlariga yetib kelgan jami 868 nafar yoshdan yuqori ball to'plagan 150 nafari ushbu ta'lim muassasasining o'quvchisi degan sharafiga muvaffaq bo'ldi.

kirgani ma'lum bo'ldi.

Joriy yildan 150 nafar o'quvchi birinchi bosqichga qabul qilingan bo'lsa, kelgusi yilda yana 150 nafar nomzod qabul qilinadi. Ta'lim muddati 2 yilni tashkil etgan litseyda ona tili, adabiyot, ingliz va rus tillari, tarix, matematika, geometriya, astronomiya, algebra, informatika, kimyo, fizika, avtomobil tayyorgarligi hamda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari o'qitiladi. Barcha sinfxonalar zamon talablari asosida eng so'nggi rusumdagi multimedia va kommunikatsiya vositalari bilan to'liq jihozlangan bo'lib, darslarni interfaol usulda o'tkazish, laborator ishlarni amalga oshirish uchun sharoitlar muhayyo etilgan.

Ushbu o'quv maskaniga Urganch davlat universiteti hamda Chirchiq oliy tank

mavjud. O'quvchilar bu dargohda yashashi, ta'lim va tarbiya olishi, sport bilan mashg'ul bo'lishi, shu bilan birga, o'zlari yoqtirgan sohaning sir-asrorlarini o'rganishi uchun barcha qulayliklar mavjud.

Harbiy akademik litseyda faoliyat yuritish istagini bildirgan ko'plab malakali o'qituvchilar mutaxassisliklari bo'yicha sinovlardan o'tib, eng yuqori natijalarni ko'rsatganlari ushbu dargohga ishga qabul qilindi.

Tantanali tadbirdan so'ng mehmonlar ta'lim maskanida yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Ochiq marosimi munosabati bilan o'quvchilar va ularning yaqinlari uchun bayramona tushlik dasturxonini tashkil etildi.

**Podpolkovnik
Timur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy
okrug matbuot xizmati
boshlig'i**



BUZG'UNCHI G'OYALARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Globalashuv tendensiyalari kundan kunga tez va surunkali avj olib borayotganligini tan olmasdan, ilojimiz yo'q. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari bo'lmish radio, televideniya, internet, matbuot, elektron pochta, onlayn video kabi ko'plab yangi axborot almashinuv vositalari juda tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Ularning ta'sir doirasi ham tobora kengayib borayotganligi sir emas.



Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari globalashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Zamonaviy dunyoda uning g'oyat va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarida kuzatish mumkin. Global axborot jamiyati shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avvalambor, internet tarmoqlari va ommaviy axborot vositalariga bo'lgan ehtiyojimiz tobora oshib bormoqda. Quyida keltirilgan statistikada ham buning yaqqol isbotini ko'rishimiz mumkin:

“DataReportal”ning 2023-yil yanvar oyidagi sahifasida xabar berishicha, 2022-yilda internet foydalanuvchilari soni 1.9 foizga oshgan va ularning soni bugungi kunda 5.16 milliardni tashkil qiladi. Endi virtual makonda axborot xavfsizligiga qilinayotgan tahdidlarga to'xtalib o'tsak. Agar xavfsizlik tushunchasi ilgari harbiy kuchlar muvozanati, konfliktlar darajasi va jahon urushi tahdidi, shuningdek qurollanish poygasini to'xtatish kabi omillarga bog'liq bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda “noan'anaviy” tahdidlar bilan kurashish birinchi pog'onaga chiqdi. Ya'ni ularning o'rini axborot va mafkura oqimlarini tahlil qilish egallab bormoqda. Ular orasidan agressiv buzg'unchi axborot va g'oya fantomlarini belgilab olish va o'z vaqtida fosh qilish ta'lim-tarbiya doirasidagi davlat siyosatining muhim bo'g'iniga aylandi.

Ayni globalashuv davrida ommaviy axborot vositalariga asosan, o'smir yoshlar katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatan ham bu masalaning

qanchalik ulkan ahamiyatga ega ekanini anglashimiz mumkin. Internet bolalar va o'smirlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylangan. Bugungi kunda har bir internet klubining aksariyat qismini o'smir yoshlar tashkil etadi, kutubxonalarda esa sanoqli yoshlarni uchratamiz. Kompyuter va virtual o'yinlar yoshlar ongiga, ularning psixologiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Internet klublarida yoshlar ayni o'qib, bilim oladigan qimmatli vaqtini shunday o'yinlar va virtual noma'lum shaxslar bilan tanishuvlarga sarf qilayotgani o'ta achinarli holat. Qolaversa, virtual o'yinlar orqali yoshlarning ongida bora-bora loqaydlik, shafqatsizlik, buzg'unchilik va manqurtlik kabi salbiy illatlarning tomir otayotganini ko'rishimiz mumkin.

XXI asr globalashuv davrida internetdan foydalanayotgan o'smirlarning hammasini ham oqilona foydalanyapti, deya olmaymiz. Ularning orasida yoshlarni ma'naviy ongini zaharlash, o'zligidan ayiruvchi saytlarning mavjudligi mafkuraviy-ma'naviy tajovuzlar, mintaqaviy mojarolar va diniy qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lyapti. O'smirlarning shu kabi tajovuzkorona holatlarga qo'shilib qolishining sababi birinchi o'rinda ota-ona, mahalla, ta'lim muassasalari ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va ota-onalarning o'z farzandlari oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarmayotganligida.

Garvard universitetida o'tkazilgan tadqiqotda virtual dunyo uchun eng keng tarqalgan uchta tahdid aniqlandi: 1) kibertajovuz; 2) jinsiy shilqimlik;

3) noqonuniy va zararli odatlar (*virtual g'iyohvand moddalarni ommalashtirish, pornografiya, o'z joniga qasd qilish (suitsid) va boshqalar*). Nisbatan yangi tahdidlardan biri bu – kibertajovuz, o'spirinlarning virtual terroridir. Aytaylik, oddiy hayotda kimdir xafa bo'lgan bolaga shafqat qilishi mumkin bo'lsa, internetda bu mumkin emas. Tengqurlari tomonidan tahqirlanishi va tahdidlar bola ruhiyatini jiddiy ravishda shikastlaydi, bunday virtual bezorilikning oqibatlarini ayanchlidir. Kiberhujumlarga nafaqat bolalar, o'smirlar ham duchor bo'lmoqda, shuningdek internet-trolling (*targ'ib qiluvchi shov-shuvli xabarlarini yuborish, ishtirokchilar o'rtasidagi nizolar, bir-birini haqorat qilish va h.k.*) kattalar auditoriyasiga ham qaratilmoqda. Trolling – virtual axborot urushlarini olib borish usullaridan biridir. O'zlarining shaxsiy manfaatlari uchun shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash orqali foydalanuvchi hayotini buzishi mumkin bo'lgan kiberfiribgarlar soni tobora oshib bormoqda.

Fikrimizcha, oila va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik to'laqonli yo'lga qo'yilsa, ota-ona farzandi foydalanayotgan ijtimoiy tarmoqlarni o'z nazoratiga olsa, farzandining bo'sh vaqtlarini unumli tashkil qilishga e'tibor qaratsa, bugungi kundagi juda ko'p salbiy illatlarning oldi olingan bo'lar edi.

Suv havzasida cho'milishni yoqtiradigan farzandiga ota uning chuqurligi, oqimi, xavfli jihatlari haqida aytib, ehtiyot choralarini ko'rish lozimligini ta'kidlashni unutmaydi. Farzandining “Havza nega chuqur?

Nega oqim tez? Nima qilsam, hayotim xavfda qolmaydi?” kabi savollariga erinmasdan javob beradi. Tushuntiradi va natijaga erishadi.

“O'rgimchak to'ri”ning ham bolalar hayotiga ko'rsatadigan ta'siri, foyda-yu zararli tomonlarini shu kabi qiyoslar orqali bola ongiga yetkazish muhimdir. Chuqur havzani chegaralash mumkin, buni bola yaxshi anglaydi. Shu bois internetning nechog'liq chuqur va dahshatli oqim ekanini ularga tushuntirish yaxshi samara beradi. Voiz al-Koshifiyning “Imkon boricha bolaga yaxshi ta'lim-tarbiya berishga intilish lozim, toki u ijobiy xususiyatlarni o'zlashtirsin va yaramas harakatlardan o'zini muhofaza qilsin”, degan ibratli so'zlari ana shu jihatlarni anglatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bolalarning 38 foizi zo'ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foizi millatchilik xarakteridagi saytlarni muntazam kuzatib boradi. Ko'plab saytlarda axloqsizlik, zo'ravonlik, millatlararo va diniy ixtiloflarni, narkotik vositalar va spirtli mahsulotlarni iste'mol qilish targ'ib etilmoqda.

Davlatning kelajagi yoshlar qo'lida. Dunyoda shunday turdagi dushmanlar borki, ular biror davlatni parokanda qilish uchun qurol ishlatmasdan yoshlar ongini zaharlab, ma'nau davlatni yemirib boradi. Shunday ekan, biz ham yoshlar tarbiyasiga loqaydlik bilan qaramasdan, ularni vatanparvarlik va milliy g'urur ruhida, zamon bilan hamnafas, barkamol avlod qilib tarbiyalashimiz lozim.

Katta leytenant
Sultonxon ALOVDINOV

BERUNIYNING “HINDISTON” ASARI BEBAHO QO‘LYOZMADIR

Birinchi Renessans
– “Oltin davr”da
yashagan va jahon
sivilizatsiyasiga
ulkan hissa
qo‘shgan buyuk
mutafakkir va
qomusiy olim
Abu Rayhon
Muhammad ibn
Ahmad al-Beruniy
(973 – 1048)
ilmiy-ma’naviy
merosini o‘rganish
jahon miqyosidagi
ustuvor vazifaga
aylandi.



O‘rta Osiyoning buyuk mutafakkiri va qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy Mahmud G‘aznaviy saroyida ham o‘zining ilmiy izlanishlarini aslo to‘xtatmagan. Podshoh Mahmudning Hindistonga yurishi davrida to‘plangan boy ma‘lumotlar asosida 1030-yilda 80 bobdan iborat eng salmoqli asarlaridan biri “Hindiston” kitobini yaratdi. Asarning to‘liq nomi “Tahqiq mo lil hind min ma‘qula maqbula fi-l aql va marzula” (“*Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta‘limotlarini anglash*”) bo‘lib, bu nom ancha uzun bo‘lganligi sababli, aytishga qulaylik tug‘dirish uchun “Tahqiqu molil Hind” (“*Hindistonga tahqiqalar*”) yoki oddiygina “Hindiston” deb ham yuritiladi.

Beruniyning bu asari o‘rta asrdagi hind madaniyatini o‘rganish uchun tengi yo‘q durdona va bebaho xazina hisoblanadi, deyish mumkin. Bu asar haqida Beruniy, “*Mening barcha maqsadim, qolaversa, butun qalbm faqat bilim tarqatishga yo‘naltirilgandir. Men ilm olib bahrlanish davridan o‘tib bo‘ldim va endi ilm tarqatishni o‘zim uchun ulug‘ baxt hisoblayman. Kimki bu ishning ahamiyatini to‘g‘ri tushunsa, mening hind tilidagi o‘xshash va qarama-qarshi bo‘lgan asarlar tarjimasini ustida tinmay ishlaganim va mazkur ish mas‘uliyatini o‘z bo‘ynimga olganimdan ajablanmaydi. Menga mazkur hind kitoblari harfma-harf o‘qib berilgach, ularning mazmunini anglab, manbalar mazmunidan benasib qoldirilishiga vijdonim yo‘l qo‘ymadi*”, deb fikr bildirgan.

Bu shoh asar G‘arb va Sharq olimlari, shu jumladan hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Akademik V.R. Rozen “Sharq va G‘arbning qadimgi va O‘rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo‘q”, deb baho bergan. Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida

shohga hamroh bo‘lgan Beruniy u mamlakat shimolidagi Nandia qal‘asida yashagani hamda sanskrit tilini puxta o‘rganishi hind madaniyati adabiyoti va Hindistonning o‘sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishga va bu mamlakat haqida o‘lmas asar yaratishga imkon berdi. “Hindiston” asari yozib tugatilgan yili Mahmud G‘aznaviy vafot etdi va uning o‘rniga taxtga o‘g‘li Mas‘ud o‘tirdi. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshilandi. Astronomiyaga oid “Mas‘ud qonuni” asarini sulton Mas‘udga bag‘ishladi. O‘sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha, “Mas‘ud qonuni” kitobi matematika va astronomiya bo‘yicha ungacha yozilgan hamma kitoblari izini o‘chirib yuborgan.

Milliy tariximizning yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni “Beruniy asri” deb ta‘riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo, qomusiy tafakkur sohibi bo‘lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea-hodisalarga, o‘z zamondoshlariga baho berishda ham o‘ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko‘p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo‘lgan, ammo har qanday og‘ir sharoitga qaramasdan, e‘tiqodidan qaytmagani uning o‘z ma‘naviy ideallariga naqadar sodiq bo‘lganidan dalolat beradi.

Beruniy Hindistonning qadimiy adabiy tili sanskritni, hind xalqining urf-odatini, turmushi va madaniyatini o‘rgandi va o‘zining “Hindiston tarixi” kitobida hind xalqining tarixi, o‘sha vaqtdagi Hindistonning ijtimoiy tuzumi, fani va madaniyati to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar keltirgan. Bu kitob hind xalqlarining hayoti bilan

shaxsan tanishish asosida yaratilgan qimmatli va yagona qo‘lyozma asardir. Beruniyning asari o‘tgan asrning 60-yillari o‘rganildi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, 1963–1965-yillar oralig‘ida o‘zbek tiliga I va II tomlari tarjima qilindi.

Filologiya fanlari nomzodi N.G‘. Nizomiddinov “Beruniy – bashariy tafakkur sohibi” nomli maqolasida ta‘kidlashicha: “*Bizning nazrimizda, fan fidoyisi xuddi o‘z tasavvuridagi Amerika qit‘asining xaritasini chizganidek, “Hindiston” asari orqali Janubi-sharqiy Osiyo xalqlarining bashariy miqyosdagi kelgusi taraqqiyotidan bashorat qilgan bo‘lsa, ne ajab! Qolaversa, Beruniy qachonlardir o‘zi qalamga olgan mavzuga doir manbalar mazmunini tushunib yetishga chanqoq kishilarning paydo bo‘lishini nafaqat faraz qilgan, balki ishongan ham.*

Aks holda hayotining har bir lahzasini oltin kabi misqolab o‘lchaydigan, zamondoshlari so‘zi bilan aytganda, “qo‘li qalamdan, ko‘zi kuzatishdan, aqli o‘ylashdan tinmaydigan kishi” umrining qariyb qimmatli o‘n yilini musulmon dunyosida “ma‘jusiy diniy e‘tiqod” hisoblangan hinduizm kabi “o‘ta nozik bir masala” bayoni va tahliliga sarflashga jazm qilarmidi?”

Beruniy yaratgan asarlar orasida ham hajmi, ham ahamiyati jihatidan yirigi “Hindiston” edi. Hozirgi hind olimlarining fikricha, Hindiston haqida haligacha hindlarning o‘zlari ham shunday ajoyib asar yaratmaganlar, deb baho berishadi. Shuning uchun hindlar Beruniy nomini chuqur hurmat bilan tilga oladilar. “Hindiston”ga o‘xshagan asar umuman fan tarixida uchramaydi. Unda ham mamlakat, ham yarim orol xalqlari haqida shunchalik boy ma‘lumot beriladiki, aql bovar qilmaydi: diniy tabaqalar, e‘tiqodlar, xurofat, falsafa, aniq fanlar, qonun va urf-odatlar, diniy-tarixiy afsonalar, yozuv turlari, yarim orol jo‘g‘rofiyasi, adabiyoti va hokazolar.

Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari alohida biror asarda yoritilmagan. Biroq uning bu sohadagi fikr-g‘oyalari olimning deyarli barcha ilmiy durdonalarida aks ettirilgan. Beruniy sinf va tabaqalar asosida boylik va nasl-nasabning ulug‘ligi emas, balki tegishli vazifa-mashg‘ulot va hunar yotmog‘i lozimligini ko‘rsatib o‘tadi. Tenglik va adolatni ta‘minlashni muhim vazifa qilib qo‘yadi. U xalqlarning do‘st, inoq, ittifoq bo‘lib yashashi uchun kurashadi.

“Bu yer, makon, mening yerim, makonim, odamlar esa faqat mening xalqim vakillari, hukmdor bizlarnigina hukmdorimiz, din ham faqat bizning dinimiz, haqiqiy fan bizning fanimiz” qabilidagi millatchilik, ayiruvchilik illatlarini qattiq tanqid ostiga oladi. O‘rta asrning buyuk olimi insoniyatga u yaratgan fan va madaniyatga qirg‘in keltiruvchi urushlarni qoraladi. Xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash tarafdori edi.

Beruniy “Hindiston” asari ustida ishlayotgan vaqtda sanskrit tilidagi yuzdan ortiq manbalardan foydalangan va “Hindiston” asari yozib tugatilganidan so‘ng besh yil o‘tgach, u tuzgan o‘z

asarlari ro‘yxatidan ma‘lum bo‘lishicha, u hind materiallariga asoslangan 20 ta asar yozgan.

Beruniy “Hindiston” asarida borliq masalasida, uning tuzilishi, falsafiy tushunchalarini tahlil qilar ekan, qiyosiy taqqoslash usulidan keng foydalanadi. Beruniy “Hindiston” asarida “Hindlarning turli ranglar deb ataydigan tabaqalari va ulardan ham quyi tabaqalar haqida”gi bobida alloma: “*Qadimgi Hindistonda podshohlar, odamlarning qaysi tabaqa va martabalariga ajratishga ko‘proq nima sabab bo‘lganiga alohida e‘tibor berib, ularni bir-birlariga qo‘shilish va ishlariga yuritishdan saqlar, tabaqalar sababli podshohlarga aralashishni man qilar va har bir tabaqaning o‘ziga tegishli ish yoki san‘at va hunar bilan hamisha mashg‘ul bo‘lishga buyurar, hech bir kishining o‘z martaba va darajasidan o‘tishga ruxsat bermas va o‘z tabaqasi bilan kifoyalanmagan kishiga azob-uqubat berar edilar*”.

Beruniy “Hindiston” asarida Amerika qit‘asi mavjudligi to‘g‘risidagi farazini keltirib, qayd etadiki: “*Yerning choragi ma‘muradir. Ma‘murani G‘arb va Sharq tomondan Muhit dengizi (Atlantika va Tinch okeani) o‘rab turadi. Bu Muhit okeani, Yerning obod qismini dengizlarning narigi tomonida bo‘lishi mumkin bo‘lgan quruqlik yoki odam yashaydigan yerlarda ikkala yoqdan (G‘arb va Sharqdan) ajratib turadi*”.

Beruniy “Hindiston” asarida eng qiziqarli va muhim etnografik ma‘lumotlarni keltirgan. Jumladan, Navro‘z bayrami va Yazdigard erasi tushuntirilgan. “Hindiston”da Sug‘d otashparastlari haqida faqat ikki marta eslatilgan: birinchi gal ularning kosmografik tasavvurlari qisqacha bayon qilingan hamda ulardagi Sind va Amudaryoning boshlanish yerlari haqidagi tasavvurlari chalkash ekanligi ta‘kidlangan. Xorazm va xorazmiylar haqida ajablanarli darajada juda kam: faqatgina og‘irlik o‘lchami haqida qisqacha xabar keltirilgan. Slavyanlar, tibetliklar va xazarlar haqida shimol daryolarining ular yurtlaridan o‘tishi munosabati bilan yodga olingan. Slavyanlardagi mayitning yondirilishi haqida yozar ekan, bu voqeani Beruniy “bizning zamon”da deb eslagan.

Tabiiyki, bir maqolada “Hindiston” asaridagi qimmatli ma‘lumotlarni to‘la tavsif qilishning imkoni yo‘q, albatta.

Demakki, jahon sivilizatsiyasi ravnaqiga o‘zining buyuk ilmiy kashfiyotlari bilan salmoqli hissa qo‘shgan, O‘rta Osiyo birinchi Uyg‘onish davrining yetuk namoyandasi qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asaridagi boy ma‘lumotlar hindlarning tarixi va etnomadaniyatini teranroq o‘rganib, yanada salmoqli va to‘laqonli ilmiy-tadqiqotlar yaratishda eng qimmatli va noyob manbalardan biri hisoblanadi.

Sarvarjon G‘AFUROV,
Ijtimoiy-ma‘naviy
tadqiqotlar instituti
bo‘lim boshlig‘i, s.f.d., professor.
Zoirxo‘ja O‘LMASXO‘JAYEV,
institut ilmiy xodimi, s.f.f.d.

AMALIY HARAKATLARNING

Bugun askar dasturxonini sarxil mevalar-u sabzavotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ha, yurtimizning tabiati o'ziga xos. Bu esa erta bahordan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan bahramand bo'lishimizni anglatadi. Endilikda harbiy xizmatchilarning oziq-ovqat ta'minoti dastlabki yillardan ko'ra boy va rang-barangligi, yuqori kaloriyali mahsulotlar turining ko'pligi bilan ajralib turadi. Bunda albatta Mudofaa vazirligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish xizmatining salmoqli hissasi bor.



Bilamizki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos murakkab tomonlari mavjud. Chunki ba'zi hududlarda yerning namligi yuqori bo'lsa, ba'zi yerlarga suv chiqmaydi. Mana shunday holatda biz nam yerlarni sholi ekib, suv chiqmaydigan hududlarga esa maxsus trubalar orqali suv tortib, o'zlashtiryapmiz. Mana shunday sa'y-harakatlar tufayli bu yil sabzavot va boshqoli ekindan ham yuqori hosil olishga erishdik. Bu juda katta natija!
Bugun biz baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish harakatidamiz. Ya'ni chet el tajribasidan

Zero bugun barcha harbiy okruglardagi front orti ta'minoti bo'linmalari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'ndan ziyod turlari yetishtirilmogda. Bu esa, o'z navbatida, shu sohaning jonkuyarlari bo'lgan ko'plab fidoyi insonlarning mardonavor mehnatlari mahsuli sanaladi.

– Biz tadbirkorlar bilan sherikchilik asosida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish orqali, harbiy xizmatchilar dasturxoniga sifatli mahsulotlar yetkazib berishni maqsad qilganmiz. Bu yo'nalishda qilinayotgan amaliy chora-tadbirlar tufayli, yildan yilga ekin maydonlarimiz kengaymogda, bog'dorchilik, asalarichilik, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilikni rivojlantiryapmiz. Natijada, yillik daromad oshmogda, yuzlab ish o'rinlari yaratilmogda, – deydi Mudofaa vazirligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish xizmati boshlig'i podpolkovnik Murod Xudoyberganov.
– Bugungi kunda Mudofaa vazirligi yordamchi xo'jaliklarida 30 ga yaqin poliz ekinlari ekilyapti, sarxil mevalar yetishtirilyapti.



kelib chiqqan holda, intensiv ravishda baliq yetishtirishni yo'lga qo'yogqchimiz. Ma'lumki, baliq suvdagi harorat -15 daraja bo'lguncha ovqatlanadi. Harorat tushib ketsa, ovqatlanmay qo'yadi. Chunki baliq organizmi tarkibida qon kam bo'lgani uchun sovuqda harakati sekinlashadi. Bu esa, albatta hosildorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar biz intensiv ko'llar tashkil qiladigan bo'lsak, yil o'n ikki oy davomida baliqlarni ovqatlantira olamiz, shu orqali hosildorlik ham ortadi. Ma'lumot uchun aytadigan bo'lsam, 2019-yilga qadar Mudofaa vazirligi yordamchi xo'jaliklarida 3-4 gektar ko'l mavjud bo'lgan bo'lsa, bugunga kelib, 259 gektar hududda ko'llar barpo etildi. Ularda 2022-yilda 259 tonna baliq yetishtirilgan bo'lsa, bu yil ushbu ko'rsatkichni 459 tonnaga chiqarishni rejalashtiryapmiz.

IJOBIY SAMARASI



Kuz oyi – sarhisob davri. Mana shunday qizg'in pallada Mudofaa vazirligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish xizmatining joylardagi front orti ta'minoti bo'linmalarida ish har qachongidan ko'payadi. Chunki mo'l-ko'l hosilni yig'ib olish, ma'lum qismini askar dasturxoniga yetkazib berib, yana qish va bahor mavsumi uchun kartoshka, piyoz, sabzi, guruch kabi oziq-ovqatlar zaxirasini ajratish oson jarayon emas. Bu borada mirishkorlarning faoliyati alohida tahsinga sazovor.

Darhaqiqat, joylardagi front orti ta'minoti bo'linmalarining faoliyati keng qamrovlidir. Ularning tinimsiz qilgan mehnati tufayli bugun dehqonchilikdan tashqari chorvachilik, parrandachilik, issiqxona mahsulotlarini yetishtirishda ham yetakchilikka erishildi. Joriy yilda mavjud bog'lardan 4 tonnadan ortiq meva, 156,4 tonna qishloq xo'jaligi, 17,3 tonna chorva, 93,3 tonna parranda go'shti, issiqxonalarda 76,5 tonna mahsulotning yetishtirilgani fikrimizning yaqqol tasdig'idir. Ular yil yakuniga qadar barcha yo'nalishlarda yuqori natijalarga erishishni ko'zda tutmoqda.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda chorvachilik sohasida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu borada erishilayotgan yutuqlar mazkur sohaning istiqbolli ekanligidan darak bermoqda. E'tiborli tomoni shundaki, ichki ta'minot bo'linmalari o'zlarida chorva ozuqa bazasini yaratish imkoniga ham egadir.

Yuz marta gapirgandan bir bora ko'rgan afzal, degan gap bor. Yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari arafasida harbiy qism va muassasalar hududlarida, harbiy shaharchalarda front orti ta'minoti bo'linmalari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkalarining tashkil etilishi yaxshi an'ana tusini olgan. Bu mahsulotlarning bozor narxidan ancha arzonligi diqqatga sazovor. Eng muhimi, bu ezgu amaliy harakatlar shu yo'nalishda mehnat qilayotgan insonlarning qizg'in va samarali mehnatidan darak beradi.



Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA



ELIZA MYULLERNING "DARAXT" I



Afrika sehrli diyor. Yovvoyi tabiati, g'aroyib an'analari, go'zal va matonatli insonlari hayratlarga sababdir. Va ana shu joziba bilan yonma-yon ayrim davlatlarda qurolli to'qnashuvlar, ocharchiliklar, epidemiyalar hamon mavjudligi achinarlidir. Bular minglab taqdirning barbod bo'lishiga, ayollar va bolalarning haqsiz azoblanishlariga sabab bo'lyapti. Ba'zan ana shunday og'ir, murakkab hayot tarzi hukmron o'lkalardan ham o'tda kuymas samandarlar kabi insonlar yetishib chiqadilar va yuz bergan fojialarning tub ildiziga dunyo e'tiborini jalb qiladilar. Shunday samandarlardan biri S'yerra-Leoneda tug'ilib o'sgan adib Ishmael Bixni o'quvchilarimizga gazetamizning avvalgi sonlaridan birida tanishtirgan edik.

Bugun ham e'tiboringizni Afrika adabiyotiga qaratamiz. Rostini aytsam, bu qit'a adabiyoti bilan chuqurroq tanish emasman. O'qigan romani, qissa-yu hikoyalari bor-yo'g'i o'ndan oshsa kerak. Shunisi ham borki, adabiyot sizni asir etishi uchun aslida bittagina kichik hikoya ham yetarlidir.

Adabiyot sarhadsiz. Bir qalamkash sifatida ayrim yozuvchi va shoirlar ijodining umuminsoniylik kasb etishi meni hayratga soladi, havasimni keltiradi. Ular qanday qilib dardlarini millionlab odamlarga yuqtira olar ekan?! Asarni o'qish asnosida qahramon dardini his qilaisiz, chuqur xayollarga tolasiz, olis Afrika yoki Osiyo, farqni unutasiz, Insonnigina ko'rasiz, tuyg'ularingiz ostin-ustun bo'lib ketadi, irq, sarhad, millat tushunchalarini unutturadi. Buning nomi Adabiyot! Kitob!

Aziz o'quvchilarimizga janubiy afrikalik adiba Eliza Myuller asarlarini tavsiya qilamiz. Uning asari asosida film ham ishlangan. Ilk marta uning "Daraxt" hikoyasini "Jahon adabiyoti" jurnalining 2013-yil aprel sonida o'qigan edim. Hikoyani rus tilidan o'zbek adabiy tiliga Fayzi Shohismoil chevirgan. Adibaning boshqa mashhur asarlari ham bor. Negadir, ona tilimizga tarjima qilingan boshqa asarlarini topmadim. Aynan shu hikoyasining ingliz tilidan o'zbek adabiy tiliga chevirilgani ham bor ekan.

Janubiy afrikalik yozuvchining tug'ilgan yili manbalarda 1919-yil deb ko'rsatilgan. Vafoti bir joyda 1985-yil deb ko'rsatilgan. Buning ustiga uning 45 yoshda olamdan o'tgani aytilibdi. O'quvchilarimizni chalg'itmaslik uchun raqamlarga e'tibor qaratmaslikni ma'qul topdik. Chunki kaminangiz ham bu borada aniq va to'g'ri ma'lumotga ega emas. Haqiqat shuki, Janubiy Afrikaning dunyo taniydigan Eliza Myuller otli yozuvchisi bor! Va "Daraxt" uning qalamiga mansub.

O'qiyimiz: "Bu ulkan, keng shoxlari tarvaqaylab ketgan daraxtni kim va qachon o'tqazganini qishloq ahlining hech biri aytolmasdi. Lekin bu sokin ko'chaga birinchi bor kelgan odam beixtiyor shu haqda o'ylab qoldirdi. Ushbu qurg'oqchil o'lkada bunday turdagi daraxtlar juda kamyob narsa.

... Yangi kelgan kishi uni diqqat bilan ko'zdan kechirgach, uning boshqa daraxtlardan unchalik ham ajralib turmaganini sezadi. Unda qarag'aydagi ochiq soyabonga o'xshash baland, nafis xushbichimlik yo'q edi. O'zining butun hashamati bilan emanning

ulg'vorligiga teng ham kelolmasdi. Lekin baribir yil bo'yi quyosh, yil bo'yi o't purkaydigan, tangri ham unutgan bu qishloqchada uning soyasi hammaning joniga oro kirardi, xudoning marhamatiday, barchani quvontirardi va har holda, hamisha yam-yashil bo'lib turadigan ulkan daraxt yo'l bo'yida shumshayib turadigan daraxtlardan farq qilardi".

Mana, hikoyadagi Daraxt bilan ham tanishdingiz. Daraxt uning biqinidagi uychada yashovchi oilaga tegishli. Bu uychada chol-kampir istiqomat qiladi. Bolalari allaqachonlar ularni tark etib, uchirma bo'lib ketganlar. Chol qartayib qolgan bo'lsa-da ishlaydi. G'aribgina yashaydilar. Hatto hammomlari ham yo'q. Topganlari kundalik eng zarur narsalargagina yetadi.

O'qiyimiz: "Keksa xonim deraza oldida uzoq turib yonlarida qurilayotgan uyni kuzatdi. Uy emas, haqiqiy saroy! Hali uyning poydevori solinayotgan paytdayoq xonim bu uy necha xonali bo'lar ekan deb chetan to'siq orqali razm solgandi. Ikki xona, aftidan, yotoqxona mo'ljallangandi. Uchinchi eng katta xona – mehmonxona bo'lsa kerak. Avvaliga ayol uyda ikki xona hammom bo'lsa kerak, deb o'yladi. Keyin bu ikki xonadan iborat joy omborxonaga bo'lajagini angladi. Ana hasham, ana dabdaba! Hammom yetmaganday, yana omborxonaga deng! Yangi uyga ikki xona ayvon ham qurishdi: bittasi uning old tomoniga, ikkinchisi ularning kulbasi tomoniga – ochiq ayvon, ishchilarning aytishicha, bu oftobda toblanish uchun emish. Qani endi, choli bilan unga ham shunday ayvon bo'lsa! Lekin aytishadi-ku: barga beradi deb! Yo'qlarga qayoqda deysiz!.. Oldin xonimning bunday mushohadalar uchun vaqti bo'lmadi. Endi bo'lsa, bundan boshqa hech narsa haqida o'ylamasdi. Naqadar adolatsiz qurilgan bu dunyo!"

Tanish tuyg'ular. Shunday emasmi? Ayollargina ayol kechinmalarini ana shunday mukammal tasvirlaydilar. "Ana hasham, ana dabdaba!" – bu ayollargagina xos jumlar deb o'ylayman. Balki, yangilishgandirman. Yo'q-yo'q, aynan ayolga xos ta'rif bu.

Hikoyaning bosh qahramoni Daraxtni yoki kekse xonimmi?

Daraxtlarni kuzatishni yoqtiraman. Ular ham odamlarga o'xshaydi. Hech e'tibor berganmisiz? Ishonmasangiz, birorta daraxtga suyanib ko'ring, quloq tuting yoki shunchaki kaftingizni qo'ying: ko'ngilga huzur beradigan yoqimli guvillashni eshitasiz. Ayniqsa, shamolda tebranayotgan chog'da sizga nimalamidir jon-jahdi bilan uqtirayotgandek bo'ladi.

O'qiyimiz: "Keyingi kun ertalab xonim daraxt ostida kir yuvaridi. Miyasida kechagi suhbat charx urardi. Vaqti-vaqti bilan tushib turgan quyoshning yorqin nurlaridan ko'zini qisib, daraxtning shovullab turgan shoxlariga qarardi. Ertalabki shabada barglarni shitirlatardi. O'shanda shumtaka o'g'illari daraxt shoxlariga tirmashar, qizi esa uning soyasida o'tirib narsa to'qirdi. Bolalar muncha tez ulg'aymasa! Ulg'ayishdi va ketib qolishdi. Mana, endi xonim yolg'iz... Shunday g'amgin damlarda ayol o'zini daraxt bilan qarindoshlik

rishtalari-la bog'liqligini his qilardi. Ularning hayoti bir-biriga shunday chambarchas chatishib ketgandiki, ajratish amrimahol edi".

Bu daraxtga xaridor chiqdi. Kattagina pul to'lashmoqchi. Qanday qilib? Nima maqsadda? Buni hikoyani o'qib, bilib olishingiz mumkin.

Har bir daraxt bir dunyo asli. Mana, tasavvur qiling, bittagina daraxt. Yilning to'rt faslida turfa ko'rinishlar: umid, ko'z quvonchi, balog'at pallasi, yetuklik, huzunlar yana umid! Qushlar: sevgi, in qurish, ko'payish – dunyo ichida yana bir dunyo emasmi?! Ko'zimiz ilg'amas mitti jonivorlar, hasharotlarga vatan, bu daraxt. Soyasi, mevalaridan tashqari havo tozalab, insonga xizmat qilishi-chi?! Bir mo'jizaviy dunyo bo'lsa, Daraxt kabi bo'lar, ortiq bo'lmaydi!

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarni larzaga solgan bir rasm va axborotga ko'zim tushdi. Voqea Turkiyada bo'lyapti. Qayeridadir, aniq esimda qolmabdi, o'rmonli yerda kon topilibdi. Bu kon ishga tushsa, mamlakatga katta daromad keltiradi. Ammo... bu uchun o'rmondan voz kechish kerak. Mahalliy aholi norozilik bildirib qo'zg'aldi. Ayniqsa, kekse ayol yig'lab, daraxtni quchoqlab olgan rasm: "Men bu daraxt bilan birga katta bo'ldim..." Jandamlar ham aralashdi. Azizlar, men baholi qudrat turk matbuoti, ijtimoiy tarmoqlarini kuzatib boraman. Ular hech qachon qurolli kuchlari sha'niga tahqirli, yomon so'z aytmaydilar. Doim ularni alqaydi, "Tovoningizga tosh tegmasin, Alloh yomon nazarlardan qo'risin!" deya duolar qiladi, faxrlanadi. Ilk kez jandamlardan norozi bo'ldilar, o'sha kekse ayol va u bilan birga katta bo'lgan Daraxt uchun! O'rmonlari oz emas, ammo bittasi kesilsa, boshqalarini ham kesish uchun sabablar chiqaveradi.

Nima uchun bularni yozdim? Shunchaki bu hikoya qimmatini sizga chuqurroq anglatgim keldi. Boylik moddiyatdan iborat emasligi, boylikning boshqa o'lchamlari ham borligi haqida o'ylab ko'rishingizni istadim.

Shu yerda ortiqcha so'z demasdan, hikoyadan bir parchani keltiramiz: "Ellik funt nima degani? – kechasi karavotda u yoqdan-bu yoqqa ag'darilarkan o'yladi chol. Pul qo'lning kiri. Bir ikki kun o'tmay, tugaydi-qoladi. Daraxt esa bu yerda uning bolaligidan beri turibdi. Hali ko'p yillar turadi... Sen daraxt o'stirasan va u notanish kishilarning do'sti bo'lib qoladi. Lekin u o'sha notanish odamlarga tegishli emas. Bu daraxt ular uchun ayni paytda ham chol, ham o'smir: chol – chunki ular daraxtning yoshligini bilishmas, o'smir – chunki daraxt ular o'lgandan keyin hali ko'p yashaydi. Uni yer va quyosh nuri odamlar quvonchi uchun o'stirgan, hozir yashayotgan va keyin yashaydigan uchun o'stirgan... Ayol qizcha singari daraxt uchun taklif qilinayotgan pulga quvonadi. Lekin uni ayblash mumkinmi? Pul juda ko'p qulayliklarni bildiradi, eri esa unga bunday imkoniyatni berolmasdi. Shunday ekan, ayolning o'zi hal qilsin. U bo'lsa... Yo'q, bu daraxtni hech qachon pulga sotmasdi!"

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
 "Vatanparvar"



POKISTON MERGANLIK MAKTABI

“Pokiston merganlik maktabi” 2022-yil fevral oyida Pokiston Islom Respublikasi Panjob provinsiyasida joylashgan Milliy terrorizmga qarshi kurashish markazi (*National Counterterrorism Center*) bazasida tashkil etilgan.



Markaz Kharian aholi yashash punktidan 3-4 km uzoqlikda, tog'li va changalzorlardan iborat hududda joylashgan. Pokiston merganlik maktabida shtab, yotoqxona, oshxona, o'quv sinflari, sport shaharchasi, yaqin va uzoq masofalarga o'q otish maydonlari mavjud. Undan

tashqari Merganlar tayyorlash maktabidan 100 km uzoqlikda “Mangla” suvdan o'q otish havzasi, shahar sharoitidan otish uchun binolar, tog'li hududda mashq bajarish uchun tog' o'quv bazasi bunyod etilgan. Pokiston merganlik maktabida jismoniy tayyorgarlik, nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratilgan.

MERGANLARNI TAYYORLASH TARTIBI

Pokiston merganlik maktabi 2 yildan buyon Pokiston Qurolli Kuchlariga merganlarni tayyorlab kelmoqda. Ushbu maktabda merganlarni tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich “Merganlikka saralash kursi” (*Designated marksmanship course*) – o'qish davomiyligi ikki oy bo'lib, umumiy 100 dan oshiq kursant qabul qilinadi. Ushbu kursdan muvaffaqiyatli o'tgan harbiy xizmatchilar merganlik lavozimiga tayinlanadi va keyinchalik “Yetakchi merganlik kursi” (*advance marksmanship course*)ga chaqiriladi.

Ikkinchi bosqich “Yetakchi merganlik kursi” (*Advance marksmanship course*) – o'qish davomiyligi olti oy bo'lib, bu kursga “Merganlikka saralash kursi”ni muvaffaqiyatli tamomlagan merganlar imtihon asosida qabul qilinadi. Ushbu “Yetakchi merganlik kursi”da

tahsil olgan merganlar turli xildagi jangovar topshiriqlarga jalb qilinadi. Bu davrda merganlar juda ko'p tajriba orttirib, keyinchalik merganlar tayyorlash markaziga qaytib keladi va o'zlarining orttirgan tajriba va ko'nikmalarini merganlar tayyorlash maktabi bilan almashadi.

Uchinchi bosqich “Lider merganlik kursi” (*Lider marksmanship course*) – davomiyligi 11 oy bo'lib, ushbu kursda hozirgi vaqtga qadar hech kim tahsil olmagan, chunki merganlar tayyorlash maktabi ochilganiga endigina 2 yil bo'ldi.

Bulardan tashqari “Maxsus kurs” (*Special course*) ham tashkil etilgan bo'lib, uning davomiyligi bir oydan iborat. Ushbu kursda tahsil oluvchilar maxsus bo'linmalardan kelishadi. Ular jangovar vazifalarga jalb etilishi oldidan otish va maxsus-taktik tayyorgarlik fanlarini puxta o'rgatadigan maxsus kurs hisoblanadi.

Pokiston armiyasining maxsus bo'linmasi, tog' qo'shinlari, chegara qo'shinlari, motoo'qchi va artilleriya bo'linmalarining turli mutaxassislikka mansub 100 dan ortiq harbiy xizmatchilari merganlikka nomzod sifatida Pokiston merganlik maktabiga chaqiritiladi. Dastlab nomzodlardan “Merganlikka saralash kursi”ga qabul qilinishlari uchun nazariy bilimlari, xotira testi, jismoniy tayyorgarlik sifatleri va G3A3 avtomatidan amaliy otish imtihonlari qabul qilinadi. Saralashdan o'ta olmagan harbiy xizmatchilar o'z bo'linmalariga qaytarib yuboriladi. “Merganlikka saralash kursi”ga qabul qilingan harbiy xizmatchilarga B6 pistoleti, 7,62 mm.li G3A3 avtomati va 7,62 mm.li SC-76 “Thunderbolt” merganlik quroli birlashtiriladi. Pokiston armiyasi asosiy merganlik quroli sifatida 308 NATO kalibridagi SC-76 Thunderbolt merganlik qurolidan foydalanadi. Saralash kursi davomida barcha tahsil oluvchilar ushbu turdagi qurol bo'yicha amaliy mashg'ulotlardan o'tadi.

MERGANLARNING MASHG'ULOTLARI

Pokiston merganlik maktabida otish tayyorgarligi, maxsus-taktik tayyorgarlik, harbiy topografiya hamda harbiy tibbiy tayyorgarlik fanlaridan nazariy va amaliy mashg'ulotlar tashkillashtiriladi. Mashg'ulotlar davomida

general-leytenant Sayid Muhammad Adnaning “Black magic with long range precision rifle” kitobidan keng foydalanishadi.

Maxsus taktik tayyorgarlik mashg'ulotlarida Ghilli suit (*dushman merganidan himoyalash uchun niqoblanish*), kuzatuvchanlik va nishonlarni baholash, kunduzi va tunda uzoq masofaga piyoda yurish, dushman sezdirmasdan yaqinlashish, artilleriya va aviatsiyani dushman koordinatalari tomon yo'naltirish mavzulari bo'yicha mashg'ulotlar tashkillashtiriladi.

Merganning nishonlarni kuzatish, muhimlik darajasi bo'yicha baholash va yo'q qilish tartibi quyidagicha:

1. Dushman mergani.
2. It va it o'rgatuvchi.
3. Bosh dazor.
4. Komandirlar (*ofitserlar*).
5. Haydovchi va mashina kattasi.
6. Aloqachi.
7. O'q-dori yetkazuvchi va boshqa otuvchilar.

Otish tayyorgarligi mashg'ulotlarida otish qoidalari, ichki ballistika va o'qlarning yayilish qonuni, turli o'lchov birliklari ustida hisob-kitoblar, optik mo'ljalga olish moslamalarining taktik-texnik tasnifi, ishlash prinsipi va ichki setkalarini o'rganish, masofani aniqlash usullari va otish uchun kliklarni ishlab chiqish, marksmanship, board sight (*o'q-dorisiz qurolni normal otish holatiga keltirish*), turli qurollardan o'q uzish texnikasi to'g'risida nazariy va amaliy mashg'ulotlar tashkillashtiriladi.

Harbiy-tibbiy tayyorgarlik fanidan yaralangan harbiy xizmatchini jang maydonidan olib chiqish va birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, yolg'iz va juft suyakli tana a'zolari singanda ularni bog'lash usullari, yurakni tashqi tomonidan massaj qilish va sun'iy nafas berish bo'yicha nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar tashkillashtiriladi.

Harbiy topografiya fanidan mahalliy jismlar yordamida gorizont tomonlarni topish, xaritada orientirlash, GPS orqali kunduzi va tunda harkatlanish mashg'ulotlari tashkil etiladi.

Jismoniy tayyorgarlikdan chidamlilik, chaqqonlik va kuch sifatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar tashkillashtiriladi. Har hafta oxirida yo'riqchilar tomonidan nazorat tekshiruv mashg'uloti qabul qilinadi.

**Kapitan Behruz
ABDURAHIMOV,
Mudofaa vazirligi
Merganlar
tayyorlash markazi
katta o'qituvchisi**



Ma'naviy yuksalish yo'lida



Bugun yurt himoyachilarining ma'naviy olamini yanada boyitish, ularni har jihatdan salohiyatli, keng dunyoqarash va tafakkurga ega haqiqiy vatanparvarlar sifatida shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari qo'mondonligi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamkorligida o'tkazilgan "Vatan ostonasi" shiori ostidagi navbatdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir ham ayni shu maqsadda tashkil etildi.

Tadbirda elimiz ardog'idagi ustoz san'atkorlar, O'zbek milliy akademik drama teatri aktyorlari, O'zbekiston xalq artistlari Gavhar Zokirova, Afzal Rafiqov, O'zbekiston qahramoni Munojat Yo'lchiyeva, Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari, shoir Botir Ergashev, "Muqimiy" nomidagi o'zbek davlat musiqali drama teatri aktyori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Alisher Otaboyev, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy-vatanparvarlik bo'limi boshlig'i Maxfirat Zikirova ishtirok etdi.

Unda so'z olganlar Vatanimiz mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo'lmish Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, milliy armiyamizning jangovar qudrati tobora ortib borayotgani,



sarhadlarimiz daxlsizligining bekam-u ko'st ta'minlanayotgani, eng muhimi mazkur islohotlarga monand ravishda harbiy xizmatchilarning ma'naviy qiyofasi ham kundan kunga yuksalib borayotganini alohida e'tirof etdilar.

Tadbirning badiiy qismida san'atkorlar tomonidan ijro etilgan tinchlik va insoniylikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat ulashgan bo'lsa, taniqli yozuvchilarning asarlari asosida sahnalashtirilgan spektakllardan badiiy parchalar va mustaqil diyorimizni ulug'lovchi go'zal she'rlar ijrosi ham hech kimni befarq qoldirmadi.

– Bugungi tadbir yorqin taassurotlarga boy tarzda o'tdi desam, yanglishmagan bo'laman. Harbiy xizmatchilar ma'naviyat darg'alarining fikr-mulohazalari-yu ijodiy chiqishlarini zo'r

qiziqish bilan tinglab, tomosha qilishdi. Biz bunday tadbirlar qamrovini yanada kengaytirish maqsadida, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi xodimlari bilan o'zaro kelishgan holda, joriy yilning 7-20 sentabr kunlari elimiz suygan aktyorlar, fan arboblari, yozuvchi va shoirlar ishtirokida Respublikamizning olis chegara oldi hududlarida, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't va Amudaryo tumanlari, Farg'ona viloyatining Beshariq va Farg'ona tumanlari, Surxondaryo viloyatining Termiz shahri va tumani, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod hamda Shahrisabz tumanlarida istiqomat qiluvchi mahalliy aholi hamda chegarachi o'g'lonlar va ularning oila a'zolari uchun ham "Vatan ostonasi" shiori ostida "Ma'naviyat

karvonlari"ni tashkil etishga qaror qilib, o'zimiz uchun tegishli vazifalarni belgilab oldik. Zero bu kabi tadbirlar safdoshlarimiz va vatandoshlarimizda milliy ruh hamda milliy g'urur tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, – deydi podpolkovnik Azizbek Ma'murov.

Shu kuni tadbir qatnashchilari DXX Chegara qo'shinlari tarixi muzeyida bo'lib, bu yerdagi eksponatlar orqali chegara tushunchasi, uning paydo bo'lishi va davriy rivojlanish tarixi hamda bugungi kunda qo'shinlarda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar bilan yaqindan tanishdilar.

Mayor
Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

TANTANA

Harbiy qism

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga qarashli Sirdaryo viloyatida joylashgan harbiy qism tashkil etilganining 83 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir o'tkazildi.

83 yoshda



Unda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi mas'ul ofitserlari, faxriylar, harbiy xizmatchilar hamda o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar harbiy qism bosib o'tgan tarixiy yo'l, yurtimiz mudofaasida tutgan o'rni hamda olib borilayotgan ishlar xususida to'xtaldi.

Harbiy qismda xizmat qilganlar yodga olindi. Shundan so'ng sana munosabati bilan qo'mondon hamda qism komandirining tegishli buyruqlariga ko'ra, bir qator harbiy xizmatchilar esdalik sovg'alari hamda faxriy yoriqlar bilan taqdirlandi. Tantana "Impuls" harbiy orkestrining chiqishlari o'zgacha kayfiyat ulashdi.

– Ro'yxat tuzib qo'ydim, dadasi. Yana xarajatlar ko'payib ketibdi. Pulingiz yanagi maoshgacha yetarmikin o'zi? Nazira gazeta varaqlayotgan erining ro'parasiga kelib uzun "uh" tortdi va qo'lidagi bloknotdan yirtib olingan qog'ozni stolga tashladi. Husan aka boshini ko'tarib, qoshini kerib qo'ydi-da, yana mashg'ulotini davom ettiraverdi.

– Hay, sizga aityapman, pulingiz yetdimi, deb...

– Menga qara, onasi, bugun juma shekilli, o'g'ling bozorga, adashmasam, yakshanba kuni boradi. Nima, orqangdan it quvyaptimi? Yetsa, yetmasa, senga nima? Baribir xarajatlarni sen qilmaysan-ku, – Husan aka har doimgidek og'ir, bosiq ovoza gapirdi.

– Nima deganingiz bu? Bozor xarajatlariga pul berganingizni minnat qilyapsizmi? Nima, men topganimni

zoti. Egning but, qozoning qaynab turibdi. Bolalaring sog'-omon, yana nima kerak senga?

– Svet o'lgurga uch oydan beri to'lamabmiz, ko'payib ketibdi. Yanagi oy mening plastigimdag pul yetmaydi, to'lovlariga, qarashib yuborasiz.

– Yanagi oy kelaversin-chi, bir gap bo'lar.

– Anovi changyutkichning shlinkasi uzilib ketganiga ikki oy bo'ldi. Mendan boshqa uy tozalamaydi-da, yotibdi, biroq ustaga olib borib tuzattirib kelay, demaydi.

– Onasi, o'zing aytarding-ku, "changyutkich, changyutkich" deb og'zimizning suvi keladi, aslida supurgichalik tozalamaydi, deb. Ana, endi maza qilib supurgi ishlataver. O'g'lingning yo'li tushmayotgandir ta'mirxona taraflarga. Tushsa, olib kelar.

odatdagidek gaplarini eshitding. Baribir birpasdan so'ng hech narsa ko'rmagandek oldiga iljayib chiqasan: – Dadasi, choy ichasizmi? – deysan. Nazira o'zi bilan gaplashib yotar ekan, uy telefoni jiringladi. "Arazlab uyga kirib ketganimni bilarsan, olar", deb kutib yotdi. Lekin eri telefonga kelmadi. Telefon esa tinmay jiringlayverdi. Nihoyat, sochlarini yig'ishtirib o'rmdan turdi-da, borib go'shakni oldi.

– Eshitaman...

– Salomalaykum, opoqi. Men Maqsudman.

– Ha, Maqsud, tinchmisan? Uylaring, adang, opang, singillaring...

– Hammasi yaxshi. Mansur keldimi?

– Yo'q, hali. Unga aytaman: ming marta aytaman: bunaqa havoda aylanma, o'qishdan to'g'ri uyga kel, deymen, yo'q. Koshki, kira qilib yalchitsa...

– Opoqi, menga o'rtoqlarimiz telefon qilishdi. Mansurning mashinasini chorrahada to'xtatib, melisalar olib ketganmish. Shunga tinchlikmikan, deb telefon qilayotgan edim...

Nazira bandi-bandidan bo'shshib, telefonning yoniga burchakka o'tirib qoldi. Quloqlari shang'illab, ko'z oldi tumanlana boshladi.

– Dadasi... deya oldi, Husan akadan sado chiqmagach, bor ovozi bilan: – Dadasi! – deb baqirdi.

– Nima gap? Qanotli tuya ko'rdingmi?

– Bu yo'qqa qarang, o'g'lingiz...

Husan aka qo'lida gazetasi bilan chiqib keldi.

– Nima gap, nega yashin urgan daraxtday bujmayib o'tiribsan?

– O'g'lingiz... – Nazira "hiq-hiq" yig'lashga tushdi. – Mansurni melisalar olib ketishibdi.

– Nega olib ketadi? Kim aytdi?

– Ukangizning o'g'li – Maqsud qo'ng'iroq qildi. Unga o'rtoqlari aytdi.

– O'rtoqlariga ham o'rtoqlari aytdidimi? Egasiga yetguncha shishib ko'pgandir-da! Telefon qil Mansurga, nima gap ekan? Hiqillayverma eldan burun. Nima, o'g'ling jinoyatchimidiki, oyog'ing qaltiraydi?

Erining hamishagidek bosiq ovozi Naziraga biron tasalli bergan bo'lsa-da, oyog'ining titrog'i to'xtamagan edi.

– Telefoni o'chgan. Arzimagan narsa bo'lsa, telefonini olib qo'yishmasdi. Bog'lana olmayaptimi, demak, telefonini olib qo'yishgan.

E, Xudoyim, nima bo'ldi ekan, Maqsudga qo'ng'iroq qiling, qaysi bola nima debdi? Qayerga olib ketibdi?

– Bo'пти, bo'пти, o'zingni bos, hozir aniqlaymiz.

...Husan aka Maqsudni qistovga olgani unga yoqmadi, shekilli, birpasdan so'ng, uning ham telefoni o'chdi.

– Nega qaqqayib turibsan? Boring bir yoqlarga! G'aflat bosib o'tirsak, o'tiraveramiz. Endi Naziraning ovozi chiyillab chiqdi.

– Nima qilasan podadan avval chang chiqarib?! O'zi jag'ing bevaqt ochilganidan qo'rqqan edim. Tinch kuningga shukur qilmaysan!

– Birpasdan keyin eshik qarsillab yopildi. Naziraning og'zi quriyotgan edi, boya yarim banka sovuq choyni ichib yuborgan edi, yana chanqadi. "Qandim ko'tarilib ketdimikan? Qand kasalligi yuz foiz asab bilan bog'liq", degan edi do'xtiri. Nazira endi bu gal chovgumdag qaynagan suvdan quyib ichdi. Kechagi, avvalgi kunini esladi. Yakshanba kuni nevarasini ko'tarib qizi keldi. Do'mboqqina bo'lib qolgan nevarasini birpas o'ynatib o'tirdi-da:

– Senga gapirmasam, kimga gapiraman. Shu yoshga kirib, bir halovatim yo'q. Doim qanaqa qilsam, ikki so'mim to'rt so'm bo'larkan, deb yugurganim-yugurgan. Ukang o'qishni bitirib, og'zi oshga, qo'li nonga yetarmikan? Mana bu uy o'lgurni durustroq pulga sotib, to'y qilishga qurbimiz yetarmikan? Men ham ayollarga o'xshab, besh kun halovat topib, oyog'imni uzatib o'tiramikanman, – deya boshlagan edi, Gulnoza urushib berdi.

– Oyi, nega shunaqasiz-a? Mana, diydiyo qila-qila meni uzatdingiz. Oilam tinch,

Xudoga shukur. Nuqul: "Tiling bir qarich, borgan joyingda tinchib ketarmikansan, qo'rqib kechalari uyqum qochib ketadi", derdingiz. Tilim ham ichiga kirib ketdi. O'yijonim hech shunaqa vahima qilmaydilar. Hamma narsani sokin qabul qiladilar. Tinchgina shukringizni qilib o'tirmaysizmi? Charchayotgan bo'lsangiz, dam oling! Kim sizga ikkita joyda ishlasin, deyapti? Adam ro'zg'or qilib bersalar, kinoga boring, teatrga boring, – dedi.

– Kelib-kelib dardimni senga aytdimmi, men kinoda, teatrga daydib yursam, erta-indin qudachilikni kim qiladi? – deb urushib berdi Gulnozani. Hozir o'sha kunni sog'indi... Eri: "Qizim kelibdi, bir o'zim o'choqda osh qilay", deb hovliga g'isht qo'yib, qo'lbola o'choq yasab, osh qildi. Yakshanbada ham uyda tinmaydigan Mansur hech qayoqqa ketmadi. Jiyani osmonga ota-ota qiyqirtirib maza qildi, tinmay chiqillatib, telefoniga rasmga oldi. Naziraning ko'ziga yana yosh quyilib kela boshladi. Axir o'sha quyosh charaqlab turgan kunda, oila jam bo'lib, so'rida osh yeb o'tirishganlarida nega "Shukur, shu xotirjam damlarga shukur", demadi...

Naziraning boshi "lo'q-lo'q" og'rir, miyasi yorilib ketay, derdi. Eri ham kelib yotganiga ancha bo'ldi. Kelishi bilan: – Ha-a? – deya hovliqib oldiga chopgan edi:

– O'pkangni bosib ol! Yaqin o'rtog'inikiga borib keldim. "Amaki, xavotir oladigan hech gap yo'q, aylanib yurgandir. Uyingizga borib, uxlang. Bunaqa havoda shamollab qolasiz", dedi.

– Melisa-chi?

– E, melisayam odam, ishi bordir. Namuncha "melisa"laysan, yo! Keladi o'g'ling! Nazira erining bu ovozi tanirdi. Agar yana bir narsa deb og'zini ochsa, buyog'iga yaxshilik kelmasligini bilardi. Shuning uchun indamay, xonasiga kirib ketdi. Kuchi yana ikki ko'ziga yetdi. Eshik avaylabgina ochildi. O'g'li!

Nazira uning sharpasidan biladi.

– Oyi, meni olib ketishyapti. Yig'lamang, bu bir anglashilmovchilik. Erta-indin kelaman, duo qilib o'tiring! O'g'li xuddi shunaqa deydigandek, yuragi potirlab oldiga chiqdi. Chiroqni yoqdi.

– Iye, oyi, haliyam uxlamadingizmi? Sizga necha marta aytaman, uxlayvering, o'zim ovqatimni isitib yeyman, deb.

Nazira borib Mansurni mahkam bag'riga bosdi.

– Sizga nima bo'ldi, oyi, ko'zlaringiz shishib ketibdi? Yana adam bilan gap talashdingizmi?

– Meni qo'ya tur, o'zingdan gapir, tinchmisan?

– Tinch, tinch, oyi! Har kungi kelishim-ku!

– Seni melisalar... Nazira yana o'zini tutolmay yig'lab yubordi.

Mansur onasini mahkam quchoqlab turdi.

– Qayoqdan oyoq chiqarib kela qoldi bu xabar?

– Haligi... o'rtoqlaring Maqsudga... Maqsud... bizga...

– Shu qarindoshim hech o'zimizga o'xshamaydi-da, o'pkaroq...

– Gapir, nima bo'ldi?

– Hech gap! Biznikiga o'xshagan "Jiguli" o'g'irlangan ekan, tekshirishdi. O'sha zahotiyog qo'yib yuborishgan.


– Qo'ng'iroq qilib qo'ysang bo'lmasmidi, bolam, onang infarkt bo'lib qolay, dedi – ichkaridan Husan akaning ovozi keldi.

– Telefonimning quvvati tugagan edi. Yotavering, dedim-ku, oyi, o'zim isitaman ovqatimni.

– Qo'yaver, bolam, yoningda o'tiray. Ko'zim seni ko'rib turganiga, qulog'im ovozingni eshitib turganiga shukur. Ha, aytmoqchi, Maqsudni urushib yurma, u ham xavotir olgandir, jigaring-da, har holda.

Nazira gazga choy qo'yib, derazani ochdi. Yomg'ir tingan. Xush havo xonaga yopirilib kirdi. "Shukur, xotirjam onlarningga shukur"... Naziraning yuragi "shukur" so'ziga hamohang urayotgandek edi.

SHUKRONALIK FARZI



go'rimga orqalab ketmoqchi bo'lib, sandiqqa bosyapmanmi? O'zimga bitta ip ham sotib olmayman, bilasiz. Bitta paypoq oladigan bo'lsam, ro'zg'orga og'ir kelmasmikan, deb ming kecha uxlamayman.

– Nima, men o'zimga kunora paypoq sotib olyapmanmi? Ro'zg'or degani shu-da, keladi, ketadi, bu narsaga tabiiy qarash kerak. Hech kim senga minnat qilayotgani yo'q. Erkak bo'lib ro'zg'orni ta'minlab qo'yish mening vazifam. Faqat shu oddiy, odatiy narsalar uchun tashvish chekib o'zingni qiynama, deymen-da, onasi. Nazira "Ha-a-a" deganga o'xshash ovoz chiqardi-da, erining yoniga o'tirdi. Choynakpo'shni olib choy quyib bermoqchi bo'ldi, choynakning bandi issiqligidan qo'li kuydi, shekilli, "voy-voy"lab tortib oldi.

– Og'zing gapda ish qilasan. Bilasan, choynakpo'shing qalin, birpas ochib qo'yib quysang bo'lardi-ku. Keyin senga choy ichaman, dedimmi, kerak bo'lsa, o'zim quyib olaman.

– Demaysiz, demaysiz? Shu ikki kilo kartoshka bilan bir kilo piyoz oldirib kelib qo'ysangiz bo'ldi, vazifangiz tamom! Ishda termulganingiz yetmagandek, kelib ham gazet o'lgurga yopishasiz. Go'yo o'shatta kamimizni butlaydigan narsa bordek...

– Naziraning ko'zlarida yosh halqalana boshladi.

– Hadeb "kam, kam" deysan? Bir noshukur banda bo'lar ekan-da bu xotin

– E, qisqa kunda qirq marta o'tadi. Pulini ko'zi qiymaydi. Naziraxon berish kerak-da pulni. E, Xudo, kecha-kunduz oyoq-qo'lim tinmaydi. Ertalabdan kechgacha ish, kechqurun ovqat, supursidir. Qanaqa ayollar oyog'ini uzatib valaqlashib o'tirar ekan? Men doim ikki yelkam bukchayib, ish ustidaman.

– Kim sening boshingda qilich ko'tarib turibdi? Dam ol, valaqlash!

– O'zim o'zimning ustimda qilich ko'taraman! Axir, bu bolani uylantirish kerakmi? Sarpo-suruq kerakmi? Bu uy o'lgurni qimmatroqqa sotib, arzonroq uy olishimiz, qolganiga to'y qilishimiz kerakmi? Kim shug'ullanadi bu narsalar bilan? Siz ishdan borib, ishdan kelib yuraversangiz! O'g'lingiz salkam yigirma to'rt soat ko'chada! Yaxshiyam, esim borida qizimni uzatgan ekanman. Agar shu kunlarga qolsam, qizimni ham uzata olmasdim!

– Onasi, doringga borganingda quloqni yaxshilab bekitadigan yumaloq paxta bor-ku, o'shandan bir etak olib kel.

– Sendan bezor bo'ldim, deb to'g'risini aytib qo'ya qoling, zaharli tilingiz bilan nina sanchmang.

– Shu gapni aytolmay turgandim, aytib yaxshi qilding...

Naziraning yostig'i ho'l bo'lib ketdi. Yostig'ini narigi tarafga ag'darib qo'ydi. "Bo'ldi-da endi, bunchalar xunob bo'lib yig'laydigan hech narsa ro'y bermadi. Odatdagidek diydiyo qilding, eringning



“Bugun YOKI HECH QACHON!”

Jamiyatda odamlardan o'zini tortadigan, kamgap va o'ta kamtarin insonlarga deyarli barchamiz duch kelganmiz. Ular bilan dildan suhbat qurib bo'lmagligini ko'pchilik inkor etmaydi. Hatto, ayrimlarning nazarida bu toifa insonlar zerikarli suhbatdosh deya iddao qilinadi. Bugun biz fikrlariga quloq tutmoqchi bo'lgan Mavsumaxonni ham “zerikarli” suhbatdoshga chiqarganlar bo'lgan ekan. Ammo uning ko'ngil olamiga kirib borganimizda sezdimki, fikri teran, maqsadi aniq va irodasi mustahkam.

Karate va kombat aykido sport turi bo'yicha jahon chempioni, “Dovyurak jangchi” va “To'maris” ko'krak nishonlari sohibasi kichik serjant Mavsuma Suyarova o'tmishi, buguni va ertasi haqida so'zlab berar ekan, yo'qotganlari va topganlari haqida goh yig'lab, goh kulib hikoya qildi. Uning so'zlaridan samimiyatni, soddalik va sadoqatni sezish qiyin emas.

BOLALIK...

– Oilada 5 farzandmiz. Ikki opam va ikki akamdan keyin tug'ilganman. 6 yoshimdan kichik akamning karate sport to'garagiga qatnashayotganiga havas qilib men ham o'zimcha uning harakatlarini takrorlardim. Yoshimzdagi farq katta bo'lmagani uchun akam bilan sparing tushardim. Bir gal shunday mashg'ulotlarning birida

akamning zarbasini o'tkazib yubordim va burnimdan jarohat oldim. Shundan so'ng niyatim jiddiyligini tushingan dadam meni ham o'sha to'garakka qatnashishim uchun imkoniyat yaratdi. Zalda ham, uyda ham murabbiyning talablarini akam bilan birgalikda bajarardik. Shuning uchun har qanday topshiriqni puxta o'zlashtirish bizga unchalik qiyinchilik tug'dirmasdi. Maqsadimiz bir, chempion bo'lish edi. Kunlar shu zaylda o'ta boshladi. Kelajakda men shifokor kasbini tanlashim, akam esa harbiy xizmatchi bo'lishi kerak edi... Ammo kutilmagan fojia barcha orzularimizni barbod qildi...

RUHIY TUSHKUNLIK...

– Akam 19 yoshga to'lganida bolalikdagi orzusi bo'lgan harbiy xizmatchi bo'lish uchun hujjatlarni tayyorlay boshladi. Ammo bir lahza bo'lsa-da, karate sporti bo'yicha mashg'ulotlarni to'xtatmadi. Uning orzulari ulkan, unga yetishish uchun oz fursat qolayotgan edi. Afsuski, bevaqt o'lim tufayli orzusiga yetisholmadi. Barchamiz dog'da qoldik. Shifokorlar akamning yurak xurujidan vafot etganligini qayd etadigan ma'lumotnoma taqdim etdi. Hali 20 yoshga ham kirmagan, chempion bo'lmagan, harbiy ham bo'lmagan akamning orzulari menga umuman tinchlik bermasdi. Ruhan sinib qolgandim. Shunda faqatgina sportdan alamimni olardim. Mening shifokor bo'lishimni istagan akamning istaklaridan voz kechdim va harbiy bo'lishga qaror qildim. Chunki bunday sharafli kasbni niyat qilib, unga yetisha olmagan akamning orzusini ro'yobga chiqarish istagi shifokor bo'lish orzusidan yuqori edi. Ruhiy tushkunlikdan meni olib chiqqan holat ham ayni shu edi.

HARBIYLIK...

– Ayollarning harbiy xizmatga kirib kelishi yigitlarnikiga qaraganda sal mushkulroq ekan. Lekin men maqsadimdan qaytmadim. Bu yo'lda har qanday qiyinchilikni yengib o'tishga tayyor edim. O'zimdagi bor imkoniyatlarimni chamalab ko'rsam, chempion bo'lib ham harbiy xizmatchi bo'lish mumkin ekan. Menga shu yo'nalishda imkoniyat bo'lishi ikki karra yaxshi edi. Bor kuch va irodamni bir joyga jamlab, karate bo'yicha chempion bo'lishga intildim. Shukurki, maqsadimga erishdim. Men harbiy xizmatchi edim. Akamning orzularini amalga oshirganimdan

xursandman. Bu kasbning naqadar mas'uliyatli ekanligini mudofaa vazirining qo'lidan kichik serjant harbiy unvonini olganimda his qildim. Kelajakda bir lahza bo'lsin to'xtamaslik kerakligini o'shanda tushinib yetdim. 2022-yil karate va kombat aykido bo'yicha jahon chempioni, kuch tuzilmalari o'rtasida o'tkazilgan qo'l jangi bo'yicha chempionlikni qo'lga kiritdim. “Sting” laqabli sodiq do'stim bilan armiya o'yinlari g'olibi bo'ldim. Bunday marralarni zabt etish yoqimli, ammo men ko'zlagan marra yana ham yuqori. Unga yetib borish uchun tinimsiz mehnat va harakatdan to'xtamayman.

“DOVYURAK JANGCHI”

– Bir kuni ijtimoiy tarmoqlar orqali “Dovyurak jangchi” ko'krak nishoni ta'asis etilganligi to'g'risida o'qidim. Shu nishonni o'zimizni qilish istagi tun-u kun tinchlik bermadi. Safdoshim va sirdoshim bo'lgan kichik serjant Bibimaryam Suyunovaga ham ko'krak nishon haqida aytganimda, u unchalik ishonmadi. U yerda tayyorgarligi kuchli bo'lgan yigitlar ko'pligi, qolaversa ular bilan bir bahsda yengib chiqishimiz mushkulligi haqida gapirib, fikrimdan qaytarmoqchi bo'ldi. Men esa qat'iy turib oldim, “Bugun yoki hech qachon!”. Hech iloji bo'lmagan Bibimaryam menga sherik bo'lib borishga rozi bo'ldi.

Avvaliga bizning maqsadimiz jiddiyligini qabul qilishmadi va qaytib ketishimiz kerakligini aytishdi. “Dovyurak jangchi” ko'krak nishoniga loyiq bo'lish uchun og'ir shartlarni bajarish kerakligini uqtirdi. Va biz bu shartlarni uddalay olmasligimizni qayta va qayta tushuntirishga harakat qilishdi. Ammo biz so'zimizda qat'iy turib oldik. Shartlarni bajarishni boshladik. Ayniqsa, 10 km.ga yugurish bahslari ancha tinkamizni quritdi. Oyoqlarimiz qontalash bo'lib ketdi. Shunda ham Bibimaryamga taskin berardim: “Bizning tomirlarimizda buyuk ajdodlarimiz qoni oqmoqda, shuning uchun ham taslim bo'lishga haqqimiz yo'q”. Ming shukurki, yigitlar bilan bir maydonda kurashib, ko'krak nishoniga loyiq ekanligimizni isbotladik.

SPORTDAN TOPGANLARIM...

– Inson qaysi kasbda bo'lishidan qat'i nazar, unga mehr qo'ymasa hech qanday natijaga erisholmaydi. Mehr bilan boshlangan bolalikdagi intilishlarim vaqti-soati bilan o'z samarasini berdi.

Sportdan kamol topdim. Yangi do'stlar orttirdim. Sharafli kasbning egasi bo'ldim. Intizom, iroda, sabr va matonatni birinchi marotaba bolaligimda sportning ta'sirida sezganman. Oradan ancha vaqtlar o'tib, ulg'aygan bo'lsam-da, sportdan orttirgan bu kabi xislatlar xarakterimga ko'chdi. Buning uchun sportga qiziqishimni orttirgan akamdan minnatdorman. Akamni yo'qotgan vaqtlarim edi. Ruhan tushkun kayfiyatda mashg'ulotlarni tugatib qaytayotganimda bir nechta yigitlar yo'limni to'sishgan. Gap orasida o'zimni bosolmasdan ularga qo'pol gapirganimni bilaman, bittasi qo'l ko'tarmoqchi bo'ldi. Refleks tufayli bo'lsa kerak, oyog'im bilan yuziga tepdim. Shu zahoti qo'lidagi plansheti yerga tushib sinib ketgandi. O'zim hali planshet nimaligini tushunmagan holda, unga yangisini olib berishga majbur bo'lganman (*kuladi*). Sport o'zimni himoya qilishni o'rgatdi.

XULOSA...

– Maqsadi aniq bo'lgan insonning bosayotgan qadamlari ham dadil bo'ladi. Harakatlarida qat'iyat bo'ladi. Hattoki, o'ylayotgan o'y-xayollari ham aniq. Chunki u insonda maqsad bor. Tanishlarim meni kamgap va kirishuvchan emasligimdan ko'p xavotir olishgan. Hatto bu “kamchiligimni” yuzimga ham aytishgan. Mening o'z olamim bor va bu olamimda yuqori cho'qqilarni zabt etishga yetadigan irodam bor. Har bir daqiqa bekor ketishidan qo'rqaman. Undan doim unumli foydalanishga intilaman. Bugungi ishni ertaga qoldirgim kelmaydi. Erishgan va erishayotgan natijalarim meni qoniqtirmaydi. Yanayam ko'proq marralarni zabt etishim uchun menga to'siq bo'layotgan biror narsa yo'q. Demak, hammasi o'zimga bog'liq ekan, nega harakat qilmasligim kerak?

Nomim tarixda qolishini orzu qilaman. Buning uchun qilinishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p. Vaqti-soati bilan bularning barchasini uddalayman. Nomim kelajak avlodlar tomonidan yaxshi xotiralar bilan eslanadigan ishlarni amalga oshiraman. Xayollarim faqat shunday o'y-fikrlar bilan band. Balki shuning uchun tanishlarim nazarida kamgapdirman. Aytiladigan so'zdan ko'ra, qilingan ezgu amallar meni ko'proq qiziqtiradi. Shu aqidaga amal qilib yashayman.

«Vatanparvar» muxbiri
Sherzod SHARIPOV
yozib oldi.

SOCH

NEGA TO'KILADI?



Soch tanamizdagi eng tez ta'sirlanuvchi a'zodir. Shuning uchun ham unga doimiy parvarish lozim. Hayot tashvishlari, odamni qayg'uga soladigan holatlar, hatto fasllar almashishi ham birinchi navbatda sochlarimizga ta'sir etadi. Yana soch to'kilishiga turli kasalliklar, gormonal o'zgarishlar, turli hissiyotlarga berilish ham sabab bo'ladi (*bu haqda quyida batafsil ma'lumot beramiz*).

Umuman olganda sochlarni parvarish qilishda noto'g'ri usullardan foydalanish, misol uchun soch yuvishda, bo'yashda, turmaklashda yo'l qo'yilgan xatolar tufayli ham soch to'kilishi mumkin. Shifokorlarning fikricha, har kuni o'rtacha 50 tadan 100 tagacha soch tolasi to'kilishi me'yoriy holat hisoblanadi. Bundan xavotir olmasa ham bo'ladi, chunki to'kilgan tolalar o'rniga yangisi o'sib chiqadi. Agar soch aytilgan miqdordan ko'p to'kiladigan bo'lsa, bunday holatga kasallik deb qaraladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida soch kasalliklarining u yoki bu shakli bilan kasallanganlarning 65 foizi erkaklar va 35 foizi ayollardir. Kasallikning ko'payishiga yuqorida keltirilgan omillardan tashqari yana ekologik omillar, iste'mol qilinayotgan oziq-ovqatlar tarkibida foydali moddalarning yetishmovchiligiga ham bog'liqligini olimlar isbotlashgan.

Ma'lumki, soch tolasi o'zak va ildiz qismlaridan iborat bo'lib, uning tarkibi pigment va keratin moddalaridan tashkil topgan. Insonning boshida o'rtacha taxminan 100 000 soch follikulalari mavjud. Qizig'i, soch rangiga qarab, follikulalar soni va qalinligi farq qilishi mumkin. Soch tolasi malla sochlilarda 150 000 ta, qizg'ish sochlilarda esa 50 000 ta bo'lishi mumkin.

Hayot davomida har bir follikuladan 20-30 ta soch tolasi o'sishi mumkin. Har bir yangi soch tolasi 2-7 yil davomida o'sishi mumkin va uning uzunligi bir metr dan oshadi.

Soch o'sishi uch bosqichda bo'ladi:

- Anagen bosqichi – o'sish davri. Boshdagi 85 foiz soch tolasi ushbu bosqichda o'sadi. Bu davr 2-5 yilgacha davom etadi.

- Katagen bosqichi – regress davri hisoblanib, 1 foiz sochlar ushbu bosqichda paydo bo'lib, 3-6 hafta davom etadi.

- Telogen bosqichi – tinchlanish davri. Bu davr 1-3 oy davom etib, bu bosqichda 14 foiz sochlar o'sishi kuzatiladi. Soch tolalari butun hayot davomida 25 marotaba ushbu siklni o'taydi.

SABABLARI QANDAY?

Birinchi: soch to'kilishi nasl suradi. Agar ota-onalardan birida bunday muammo bo'lsa, u farzandga ham o'tishi mumkin. Jarayon ba'zan 25-30 yoshda boshning ma'lum bir qismida yoki butun yuzada soch siyraklashishi bilan boshlanadi. Shifokorlar genetik testlar va bosh terisi biopsiyalarini o'tkazadi: agar soch follikulalari maydalashib ketsa, muammo genlarda. Bunday holda soch to'kilishini oldini olishning hech qanday usuli yo'q, lekin jarayonni sekinlashtiradigan vositalarni topish mumkin.

Ikkinchi: turli yuqumli kasalliklar, gormonal o'zgarishlar (*masalan, homiladorlik, tug'ish jarayonidan so'ng soch to'kiladi*), dori vositalari iste'moli, ruhiy siqilishlar ham soch to'kilishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda soch to'kilishining oldini olish chora-tadbirlari o'z natijasini beradi. Ya'ni maxsus tibbiy vositalar, uy sharoitida tayyorlangan niqoblar surish foydadan holi emas.

Uchinchi: soch turmaklashda, boshqa holatlarda sochga turli kimyoviy vositalarni ishlatish soch to'kilishiga, jilosini yo'qotishiga olib keladi.

To'rtinchi: fiziologik yoki qarilik sabab soch to'kilishi. Vaqt o'tishi bilan inson organizmida to'kilgan sochlarni qayta to'liq tiklash qobiliyati kamayishi natijasida kallik paydo bo'ladi. Ayollarda fiziologik soch to'kilishi diffuzion xarakterda bo'lib, kallik kuzatilmasligi mumkin. 55-65 yosh normal fiziologik soch to'kilishi kuzatiladigan yosh, deb hisoblanadi.

Beshinchisi: patologik soch to'kilishi. U ham bir necha turga bo'linadi: chandiqli va chandiqsiz soch to'kilishi. Chandiqli soch to'kilishi turli xil kasalliklar, jarohatlar va rentgen nurlaridan yuz beradi. Chandiqsiz soch to'kilishining o'choqli, subtotal, total, universal, lentasimon, androgen soch to'kilishi kabi turlari bor.

Bosh kiyimining og'ir yoki tor bo'lishi, uzoq vaqt parik kiyib yurish, shuningdek,

oftobda boshyalang yurish ham soch to'kilishiga olib keladi. Qish kunlarida boshyalang yurish yaramaydi, aks holda yuza tomirlari qisilib soch oziqlanishi o'zgaradi va natijada soch to'kila boshlaydi.

Bolalarda soch to'kilishi og'ir yuqumli kasalliklar, shuningdek, organizmda vitaminlar yetishmasligi, jigar, me'da-ichak, nerv tizimi, qalqonsimon bezlar kasallanishi oqibatida ro'y beradi. Soch to'kilishi ayrim yuqumli kasalliklar, masalan, zahmda ko'proq kuzatiladi. Bemor tuzalganidan so'ng to'kilgan sochlar o'rniga yangi sochlar o'sib chiqadi. Ba'zan o'quvchilarda, imtihon davrida ham soch to'kilishini kuzatish mumkin. Bu o'ta toliqish, uyqusizlik davrida yuzaga keladi. Ayollarda esa sochni har xil turmaklash, preparat, ya'ni uzoq saqlanadigan jingalak qilish ham soch to'kilishiga sabab bo'ladi.

Vaqtidan oldin soch to'kilishi o'rta yoshdagi erkaklarda ko'proq uchraydi. Bunda ikki chakka va tepadagi soch to'kiladi. Bir necha yildan so'ng umuman soch qolmaydi, yoki "tepakal"ga aylanadi. Odatda "tepakal"lik nasl suradi. Uya-uya bo'lib soch to'kilishiga esa asab faoliyatining buzilishi, shuningdek, organizmning zaharlanishi sabab bo'ladi. Bu holat go'yo to'satdan ro'y berganga o'xshaydi. Dastlab bir-ikki joydan to'kilib, ular kengayib boradi va bir-biriga qo'shib, sochlarning umuman to'kilib ketishiga sabab bo'ladi. Soch to'kilgan yerdagi teri sillik, yaltiroq, yallig'lanmagan bo'ladi. Sochning bu xilda to'kilishi odatda xronik, unga davo qilish ancha mushkul kechadi, hatto davolangandan keyin ham soch to'kilishi mumkin.

KASALLIKLARNING SOCHLARGA TA'SIRI

Volchanka (teri sili)

Bu immunitet tizimi sog'lom to'qimalarga hujum qiladigan autoimmun kasallikdir. Soch to'kilishiga qo'shimcha ravishda u doimiy charchoq, bosh va mushaklar og'rig'i, yorug'likka ta'sirchanlik bilan birga keladi. Volchanka qon testi va bir qator simptomlar yordamida aniqlanadi.

Davolash: shifokor tomonidan belgilanadi. Agar bosh terisi ham qichisa, dori-darmonlar ro'yxatiga dorivor kremlar qo'shiladi.

ANEMIYA

Temir moddasiga boy mahsulotlarni yoqtirmaydiganlar anemiyaga moyil bo'ladi. Natijada qondagi kislorodni tana bo'yab tashish uchun yetarli darajada qizil qon tanachalari mavjud bo'lmaydi. Sochlar to'kiladi, konsentratsiya yo'qoladi, charchoq paydo bo'ladi.

Davolash: ferritin va gematokrit testlaridan so'ng shifokor tarkibida temir bo'lgan dorilarni, shuningdek, go'sht, baliq va loviyaga boy parhez buyurishi mumkin.

POLIKISTOZ

Bunday hollarda sochlar ko'pincha kerak bo'lmagan joyda, masalan, yuzda o'sishni boshlaydi. Shuning uchun ham boshda soch kam bo'lishi mumkin.

Davolash: shifokor testosteron darajasini pasaytirish va noxush alomatlarini davolash uchun gormonal tabletkalar buyuradi.

BOSH TERISI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

Dermatit, psoriaz, zamburug' infeksiyalari ham soch o'sishiga to'siq qiladigan bosh terisi yallig'lanishining eng keng tarqalgan sabablari hisoblanadi. Qazg'oqli dermatitga ko'p hollarda e'tibor bermaymiz, lekin unda sochlar tezroq ifloslanadi. Psoriaz terida ko'zga ko'ringan blyashalarni, zamburug' infeksiyalari esa qizil dog'larni hosil qiladi.

Davolash: qazg'oqli dermatitda maxsus shampun, psoriazda dori-darmon va turli xil terapiyalar, zamburug'li infeksiyada zamburug'ga qarshi vositalar yordam beradi. Bularning barchasi shifokor tomonidan belgilanadi.

ALOPETSIYA

Immun tizimi soch follikulalariga hujum qiladigan autoimmun kasallik. Buning sabablaridan biri og'ir stress bo'lishi mumkin, ko'pincha nima sababdan yuzaga kelishi ma'lum bo'lmaydi. Alopesiyaning uch turi mavjud: lokal (*boshida sochsiz yumaloq joylar*), total (*boshning to'liq kalligi*), universal (*butun tanadagi sochlarning to'kilishi*).

Davolash: shifokor soch to'kilishi uchun steroidlar va dori-darmonlarni buyuradi. Bundan tashqari, stress darajasini kamaytirish tavsiya etiladi.

FAOL PARVARISH

Shampun, fen va soch turmaklash vositalaridan tez-tez foydalanish sochlarga zarar yetkazadi. Ular zaif va mo'rt bo'lib, to'kila boshlaydi.

Davolash: fen o'rtacha quvvat va haroratda ishlatiladi. Bunday hollarda soch turmaklash vositalarini ishlatmagan, soch rangini tubdan bo'yamagan ma'qul.

UY SHAROITIDA PARVARISHLASH YORDAM BERADIMI?

Faqat tabiiy soch to'kilishidagina uy sharoitida tayyorlanadigan niqob va surtmalar yordam beradi. Patologik soch to'kilishi aniqlanganda bunday usullar ish bermaydi. Quyida biz sizlarga tabiiy soch to'kilishining oldini oluvchi niqoblarni tavsiya etamiz.

Barcha turdagi sochlar uchun niqob. Bu niqobni tayyorlash uchun o'simlik moyi bilan kanakunjut moyi 1:9 nisbatda aralashtirib soch ildizlariga surtiladi. So'ng boshga sellofan qalpoq kiyib, 1 soatdan keyin yuvib tashlanadi. Sochni yuvishda quruq sochlarga mo'ljallangan shampundan foydalanish kerak. Ushbu davo usuli haftada 2 marta, jami 10 marta takrorlanadi.

Quruq sochlar uchun niqob. 1 dona tuxum, 1 choy qoshiq glitserin, 1 choy qoshiq sirka, 2 osh qoshiq kanakunjut moyi aralashtirilib, soch ildizlaridan to uchigacha surtiladi. Boshga issiq qilingan sochiq o'rab qo'yiladi. Sochiqni ikki-uch marta almashtirish lozim. Soch keragicha namlangandan so'ng tuxum sarig'i ekstrakti qo'shilgan shampun yordamida yuviladi. Ushbu davolash usuli haftada ikki marta bajariladi.

Quruq, normal sochlar uchun namlantiruvchi niqob. Bu niqob soch tolalarini, ildizlarini namlantiradi, to'kilishining oldini oladi. Niqobni tayyorlash juda oson. Buning uchun 37 darajagacha qizdirilgan qatiq soch tolalariga, bosh terisiga surtiladi. Ustidan pergament qog'oz bilan o'rab, iliq sochiq yopiladi. 20-30 daqiqadan so'ng sochga yana qatiq surtilib, bosh terisi barmoq uchida yengil massaj qilinadi. Keyin soch iliq suvda, shampunsiz yaxshilab yuvib tashlanadi.

Yog'li sochlar uchun niqob. 1 choy qoshiq asal, 1 choy qoshiq limon sharbati, 1 bo'lak ezilgan sarimsoq, 1 choy qoshiq stoletnik sharbati aralashtirilib, nam sochga surtiladi. Boshga polietilen qalpoq kiyib, sochiq bilan yaxshilab o'raladi. 30-40 daqiqa o'tgandan so'ng sochni iliq suvda sovunsiz yuviladi.

Sarimsoq hidini ketkazish uchun xantal qo'shilgan suvda yuvib, toza suv bilan chayib tashlanadi.

G. HOJIMURODOVA tayyorladi.



BOLAGA PUL

BERISH KERAK(MI?)

Mana yozgi ta'til ham tugab, bolajonlar yana maktab bag'riga qaytdi. Shunaqa bir qizg'in vaqt va sharoitda ko'pincha asosan, yosh ota-onalarda shunday savollar paydo bo'ladi: maktabda bolaga pul kerakmi yoki yo'qmi? Lozim bo'lsa qanchadan? Kerak bo'lmasa, nimaga? Pul bolani buzadimi yoki pulsizlik? Bunday savollar har qanday ota-onani o'ylantirishi tabiiy. Quyidagi ma'lumotlar orqali siz shu savollarga javob topsangiz ajabmas.

HAMMASI OILADAN BOSHLANADI!

Agar farzand tinch-totuv, risoladagidek oilada tarbiyalansa, oila a'zolari bir-birlariga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lsalar, bolaga pul berish, uning pulga munosabatini shakllantirish borasida turli tajribalar qilib ko'rsa bo'ladi. Ammo oilada muhit nosog'lom bo'lsa, pul bola uchun har qanday holatda ham (*ya'ni bersangiz ham, bermasangiz ham*) muammoga aylanadi. Shunday ekan, demak, eng avvalo, oiladagi muhitni yaxshilang.

"Ha" mi yoki "Yo'q"

Bolaga pul berish kerakmi degan savolga "ha" deguvchilar ham, "yo'q" deguvchilar ham bisyor.

"Yo'q" deguvchilarning dalillari:

* bola pulni to'g'ri sarflashni bilmaydi, ota-ona unga nima kerak bo'lsa o'zi olib berishi lozim;

* halitdan pulga o'rgansa, kelajakda xasis va ta'magir bo'lib qoladi;

* doim pul berib turmasangiz, injiqlik qiladigan bo'ladi, o'zi ishlab topmagani uchun pulning qadriga yetmaydi;

* yonida ko'p pul yursa, yomon o'rtoqlari ko'payadi, urib olib qo'yuvchilar ham topiladi.

"Ha" deguvchilarning dalillari:

* atrofdagi hammada – ota-onasida, aka-opalarida, tengdoshlarida pul bor-u, faqat unda yo'q. Bola o'zini noqis seza boshlaydi, o'ziga bahosi tushib ketadi;

* pul bersangiz, uni mustaqil ishlatishni, rejalashni, tejashni o'rganadi. Qo'lga pul bermay pulga to'g'ri munosabatni shakllantirish imkonsiz;

* bermasangiz, o'jar, qaysar bo'lib boradi, o'sha pulni o'g'irlab olishi mumkin.

Shu sababli qat'iy bir gapni aytishga shoshilmang. Chunki bolalar ham, kattalar ham, oilalar ham turlicha. Shuning uchun vaziyatga qarab ish tutish masalaning yechimi bo'ladi.

NECHA YOSHDAN BOSHLAB PUL BERGAN MA'QUL?

Ikki qarash bor: yo bola pul sanashni bilgandan boshlab, yoki maktabga chiqqach. Ko'pincha bu ikkisi bir vaqtga to'g'ri keladi. Bola pul sanash va ishlatishga tayyorligini bilish uchun uni do'konga jo'natib turing. Sinab ko'ring-chi, aytgan narsangizga bergan pulingiz yetmasligini sezarmikan, qaytim olishni unutmamikan, qaytim noto'g'ri qaytarilsa, bilarmikan? Shularning o'zidan bolangizning pul bilan muomala qila olish yoki olmasligini bilib olsangiz bo'ladi.

QANCHA BERISH KERAK?

Pulni bolangizning yoshi, ehtiyojlari va albatta, imkoniyatlaringizdan kelib chiqib berasiz. Hech qachon falonchi maktabga shuncha olib kelyapti, menga ham bering, degan gaplariga ko'nimg. Bolaning real ehtiyojlarini biling va shunga loyiq pul bering. Bordi-yu, har kuni pul bera olmasangiz, buni unga tushuntiring. Aytaylik, siz falonchining ota-onasi kabi har kuni unga pul bera olmaysiz, ammo ma'lum vaqtdan keyin unga kutgan narsasini sovg'a qilishingiz mumkin. Mutaxassislar bir masalada yakdil: bolaga xoh haftada, xoh oyda bir bo'lsin, pul berib turish kerak. Bo'lmasa, u o'zi pul ishlab topganda uni sarflashga qiynaladi.

SHARTLARGA RIOYA ETISHNI O'RGATING

Mutaxassislar, bolaga pulni ma'lum vaqt oralig'ida, faqat nimaga sarflashini avvaldan kelishib olgan holda berishni tavsiya etadilar. Masalan, har kuni tushlik uchun yoki oyda bir marta kundalik harajatlari uchun va hokazo. Ammo bola bu pulni olish uchun ma'lum shartlarga

rioya etishi kerakligini bilsin. Ota-ona bolani jazolashda unga pul bermaslik usulini qo'llamasligi kerak. Bu samarasiz, hatto, zararli jazo turidir. Chunki shunday vaziyatda ko'p hollarda bola ota-ona bilan savdolahishni boshlaydi.

TO'G'RI SARFLASHNI BILSIN

Bolalar ko'pincha pulni birdaniga sarflab qo'yishadi. Pulga yengil munosabatning nimalarga olib kelishini bildiring: aytilgan muddatgacha yetkaza olmadimi, demak bir-ikki kun pulsiz yuradi.

Boshida xarajatlarni rejalashtirishni o'zingiz o'rgatib boring: mablag'ni mayda qismlarga bo'lib, vaqti-vaqti bilan berib turing. Bola ortiqcha sarf-xarajatga yo'l qo'ymay, rejalab ishlatayotganiga ishonsangiz, haftada bir marta bir haftalik qilib berishingiz mumkin. Bordi-yu, to'g'ri sarflashni eplolmasa, demak, hali u mustaqil xaridlarga tayyor emas. Vaqt, imkon berasiz va kutasiz. Faqat xarajatlarni doimiy nazorat qilib borishni unutmang.

PULNI ONGLI TARZDA BERING

Kichik miqdordagi pulni berib, "Bu oshxonadan kulcha olishing uchun" deyish uni hisobsiz berish kabi zararlidir. Har ikkala holatda ham bolada shaxsiy ehtiyojlarga mustaqil mas'uliyat imkoniyati qoldirilmayapti. Bunda ehtiyojlarni istiqbolligini yuzasidan turlarga ajratish istagi paydo bo'lmaydi. Axir mablag'ning aniq maqsadi yoki qo'shimcha narsalar qat'iy belgilab qo'yilgan (*"kulcha"dan boshqa narsalarga pul yetmaydi*), yoki shartli ravishda umumlashtirilgan (*shartli aytganda, hammasiga yetadi*).

Aslida mayda xarajatlarni uchun bolaga beriladigan pulning bosh ma'nosi bolaga pul bilan muomala qilishni o'rgatishdir. Shuning uchun ota-ona bola hisob-kitobni mustaqil amalga oshirishni o'rganguniga qadar, hech bo'lmaganda pul berishning ilk davrida quyidagi so'zlarni aytishi kerak: "Ertaga senga qancha miqdorda va nima uchun pul kerakligini hisoblab ko'raylik".

Bola bilan muhokama vaqtida unga beriladigan pul o'z ichiga quyidagi xarajatlarni qamrab olishini bilasiz:

* zaruriy bu – masalan, yo'l haqi, maktabda ovqatlanish, maktabdagi rad etilmaydigan boshqa xarajatlarni bo'lishi mumkin;

* qo'shimcha – zaruriy va xursandchilik o'rtasidagi xarajatlarni. Bu maktab oshxonasidagi sho'rva va ikkinchi ovqatga qo'shimcha shirinlik bo'lishi mumkin. Yoki standart, arzon ruchka o'rniga chiroyli avtoruchkadir. Balki eskirib ketgan qalamdon o'rniga yangisi va hokazolar bo'lishi mumkin;

* jamg'arma bu – juda muhim band. Har bir bola u yoki bu o'yinchoq haqida orzu qiladi: yangi qo'g'irchoq, skeytbord, futbol koptogi. Jamg'arma misolida bola qanday qilib orzusiga erishishi va shu yo'l bilan muvaffaqiyatni qo'lga kiritish, tejashni o'rgatish mumkin.

Bola o'ziga berilayotgan 5000 so'mga qanday xarajatlari mavjudligini anglasa, pul u uchun tushunarsiz qog'oz emas, amaliy asbobga aylanadi.

HAR HAFTA YOKI HAR OYDA BIR MARTA PUL BERING

Bolaga byudjetni yuritishni o'rgatishning eng yaxshi usuli – mayda xarajatlarni uchun har kuni emas, haftasiga yoki (*o'smirlar holatida*) oyiga pul berishdir. Tabiiyki, bu vaqtga qadar xarajatlarning tuzilishini tushungan, ularni zaruriy va qo'shimchalarga ajratib olgan bo'lishingiz kerak.

Kelayotgan hafta uchun oldindan pul olgan o'quvchi mustaqil ravishda ustuvorliklarni aniqlaydi, pul asosiy ehtiyojlariga yetishi uchun ularni masalan quyidagicha taqsimlaydi: transport chiptasi, maktabdagi tushlik va mayda xursandchilik uchun ketadigan xarajatlarni kabi.

Bola byudjetni erta sarflab yuborgan bo'lsa asabiylashmang. Bu ko'pchilik bilan sodir bo'ladi: bolalar pul bilan muomala qilishni o'rganyapti, shuning uchun xatolardan sug'urtalanmagan. Muhimi – ajratilgan mablag'dan ortig'ini bermaslik. Bir necha pulsiz o'tgan kunlarda salbiy narsalar sodir bo'lmaydi, bu unga yaxshi saboq bo'ladi.

Agar bolada zarur xarajatlarni qolgan bo'lsa-yu, ular uchun puli qolmasa, quyidagicha yo'l tutishingiz mumkin: ushbu xarajat uchun qo'shimcha pulni unga "qarz"ga berasiz. Bu pul keyingi safar beriladiganidan ayirib tashlanishini aytishni unutmang.

PULNING QADRINI BILSIN

Bola ulg'aygani sari unga quyidagi fikrni singdirish kerak: moliylashtirish bu – shartsiz huquq, hatto imkoniyat bo'lib, u ko'pincha bolaning o'ziga bog'liq bo'ladi.

Masalan, farzandingiz har haftani nol balansda boshlab, dam olish kunlarigacha mayda xarajatlarni uchun pul ishlashi mumkin. Bolaning standart majburiyatlariga kirmaydigan uy ishlariga yordam berishi uning uchun "maosh" bo'lishi mumkin. O'z xonasini yig'ishtirib qo'yishga haq to'lanmaydi, biroq bola yuvinish xonasi yoki oshxonani tartibga keltirsa, u qo'shimcha 2-3 ming ishlaydi. "Maosh" olishning boshqa yo'li – aytilgan ballardan yuqori baho olganlik uchun qo'shimcha pul berish. O'qib berilgan, yoki aytib berilgan hikoya uchun. 10 qatordan ortiq qatorli bolaning o'zi tomonidan yozilgan she'r uchun. Yoki kichik bolalarga qarashda yordam berish kabilardir.

Siz o'zingiz va farzandingizga ma'qul keladigan variantlarni tanlab olishingiz mumkin. Uning hajmini belgilash, bajarishga intilish va boshqa omillarni ko'rib chiqishingiz ham mumkin. Bularning bari bolani pul mehnat va topqirlik bilan ishlab topilishiga o'rgatadi.

SHAXSIY NAMUNA KO'RSATING

Shaxsiy namuna – bolani pulni boshqarishga o'rgatishning yaxshi usuli. Qizingiz yoki o'g'lingiz maoshingizni qaysi xarajatlarni uchun taqsimlayotganingizni ko'rsin: kommunal to'lovlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak. Bolani oilaviy hordiqni rejalashtirishda yordamga chaqirish ham mumkin: "Agar yozda dengizga borishni istasak, har oy mana shuncha pul yig'ishimiz kerak". Shuningdek, qimmat buyum va texnikani kredit olish yoki jamg'arib borish orqali xarid qilish mexanizmini ham tushuntiring.

XAYRIYANI QO'LLAB-QUVVATLANG

Pulning bir qismini bola kerakli deb hisoblagan narsa uchun xayriya qilishi mumkin. Ota-ona tomonidan bu imkoniyatga diqqat qaratilishi lozim. Axir bolalar kimgadir yordam berish yoki ba'zi xayriya loyihalarida ishtirok etish uchun kichik deb hisoblanadi.

Xayriya ijtimoiy javobgarlikni tarbiyalashga yordam beradi. U esa o'z navbatida boladagi mas'uliyat hissi darajasini oshiradi. Kelajakda bu omil ulg'aygan o'g'il yoki qizning pul bilan muomalasi va umuman olganda, uning hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

MUSTAQILLIK DARSI

VATANPARVAR YOSHLAR KELAJAGIMIZ

Yurtimiz umumta'lim maktablaridagi barcha sinflarda o'qishlar "Mustaqillik darsi" bilan boshlandi.



Harbiy prokuratura organlari xodimlari umumta'lim maktablariga, shu jumladan, o'zlariga birlashtirilgan olis hududlardagi bilim maskanlariga tashrif buyurib, mustaqillik darslarida ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Ma'ruzalarda istiqloq, uning mohiyati va ahamiyati, yurtimizda mustaqillik davrida, shu jumladan, so'nggi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim jabhasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, bolalarga va yoshlarga yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar xususida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz to'g'risida hamda ona Vatan, harbiy-vatanparvarlik, halollik, fidoyilik kabi oliy tuyg'ular haqida atroflicha tushunchalar berildi.

Adliya polkovnigi Bahrom JALOLXO'JAYEV, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i

YONG'INLAR PROFILAKTIKASI

FAOL ISHTIROK ETAYLIK

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yong'inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yong'in xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq respublikamizda joriy yilning 1-sentabridan "Yong'indan ogohlik" umummilliy kampaniyasi boshlandi.



Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ham muntazam ravishda shaxsiy tarkib hamda keng jamoatchilik vakillari jalb qilingan holda tushuntirish va profilaktik ishlar amalga oshirilmog'da. Jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumanida joylashgan harbiy qismda yong'inga qarshi profilaktik seminar-trening o'tkazildi.

Tadbir davomida qo'shinlarda yong'in xavfsizligini tashkil etish, yong'inni o'chirish birlamchi vositalaridan foydalanish, sodir bo'lgan yong'inlarning oqibatlari hamda yong'inlarning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.

Tadbir so'ngida harbiy qism rahbariyati va mas'ul ofitserlar barcha harbiy xizmatchilarni "Yong'indan ogohlik" umummilliy kampaniyasida faol ishtirok etishga chorladi.

Podpolkovnik O'ktam XAITOV, TOQQQ Yong'in xavfsizligi xizmati boshlig'i

MUDOFAGA KO'MAKLASHUVCHI "VATANPARVAR" TASHKILOTLARIDA




SPORT TURLARI OMMAVIYLASHMOQDA



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Jizzax viloyati kengashi tasarrufidagi texnik va amaliy sport turlari markazida sportning texnik va amaliy turlarini yoshlar o'rtasida ommalashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmog'da.

Natijada viloyat terma jamoasi shakllantirilib, nufuzli musobaqalarda ularning ishtiroki ta'minlanmog'da. Bugungi kunga kelib, viloyatda "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Avtokross", "Motokross" kabi o'ndan ortiq sport seksiyasi faoliyat ko'rsatmog'da. O'z navbatida, ularga tajribali sport murabbiylari birlashtirilgan.

– 2023-yilning o'tgan oylari mobaynida o'tkazilgan klub, tuman (shahar) mintaqaviy hamda respublika miqyosidagi musobaqalarda sportchilarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etdi, – deydi markaz direktori Mansur Rahmonov. – Musobaqa natijalariga ko'ra, bir nechta sport ustaligiga nomzod, birinchi toifali sportchi hamda ommaviy toifali sportchi tayyorlandi. Sport seksiyalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish



maqсадida maxsus kiyim-boshlar xarid qilinib, sportchilar ixtiyoriga berildi.

Viloyat terma jamoasining 15 nafar a'zosi respublika miqyosidagi 5 ta musobaqada qatnashib, umumjamo'a hisobida 1-, 2-o'rinlarni egalladi. Kengashimiz tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq, 4 marotaba havo miltig'idan o'q otish, motokross va avtokross bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. Joriy yilning o'tgan davrida o'tkazilgan sport musobaqalarida ishtirok etgan viloyat terma jamoasi a'zolari bir nechta medal, diplom, faxriy yoriq va esdalik sovg'alarni qo'lga kiritdi.

Ayni paytda markazda nafaqat sport turlarini rivojlantirish, balki yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu kunlarda bu yerda "A", "B", "BC", "C" toifali haydovchilar ham tayyorlanmog'da. Keyingi yillar davomida tashkilotning o'quv-moddiy bazasini yanada rivojlantirish va zamon talablari asosida qayta jihozlash yuzasidan bir qator ishlar qilindi.

Shu kunlarda ham markaz xodimlari yoshlarni yuksak marralar sari yetaklash, sportning ommaviyligini yanada oshirish borasidagi izlanishlarini davom ettirmog'da.

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

✓ E'TIROF

KURSANT – SHAXSIY STIPENDIYA SOHIBI

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kursanti Sanjarbek Mamayunusov Amir Temur nomidagi shaxsiy stipendiyaga sazovor bo'ldi.



Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlardan biri bu qobiliyatli kursantlarni rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol izlanish faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorlilarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-yanvardagi tegishli qarori hamda mudofaa vazirining tegishli buyrug'iga asosan, oliy harbiy ta'lim muassasalarining qobiliyatli kursantlariga Amir Temur nomidagi shaxsiy stipendiya tayinlash joriy etilgan.

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida o'quv-jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikdagi erishgan yutuqlari, o'zining intizomi va namunali xizmati bilan boshqalarga o'rnak bo'lib

kelayotgan kursant Sanjarbek Mamayunusov 2023/2024-o'quv yili uchun Amir Temur nomidagi shaxsiy stipendiyaga loyiq topildi.

Amir Temur nomidagi shaxsiy stipendiyani qo'lga kiritgan kursantlarga O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1.75 barobaridan ko'p bo'lmagan qiymati miqdorida oylik stipendiyasi qo'shib beriladi.

Bunday e'tibor kursantlar o'rtasida o'quv-jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikda yuqori natijalarga intilish, intizomli va har tomonlama namunali harbiy xizmatchi bo'lishdek sog'lom raqobatni shakllantiradi.

Mayor Sherqo'zi HAKIMOV
Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

✓ E'ZUZ

FAXRIYLAR XONADONIDA

Keksalarni, shu jumladan, mehnat faxriylarini ardoqlash O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining har bir xodimi uchun oliy qadriyatlardan hisoblanadi.



"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov boshchiligida tashkilotning ilk rahbari, iste'fodagi general-mayor Jamshid Shaxmardonov holidan xabar olindi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, 1991-yil 23-noyabrda bo'lib o'tgan Armiya, aviatsiya va flotga ko'maklashuvchi butunittifoq ko'ngillilar jamiyati (DOSAAF)ning VIII qurultoyi qarori bilan O'zbekistondagi DOSAAF negizida "Vatanparvar" tashkiloti tashkil etilgan va Shaxmardonov Jamshid Jumayevich tashkilot markaziy kengashining raisligiga saylangan edi.

Jamshid Shaxmardonov 1998-yilgacha bo'lgan faoliyati davomida tashkilotning shakllanishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan mehnatsevar rahbar sifatida yodda qolgan.

Suhbat davomida tashkilot faxriysi o'z faoliyatida yuz bergan mushkul damlar hamda qiziqarli voqealarni so'zlab berdi va tashkilot nufuzini oshirish bo'yicha o'zining zarur maslahatlari bilan o'rtoqlashdi.

Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi o'rinbosari Anvar Kurbaniyazov hamda tashkilotning Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi direktori Turob Yakubov tashkilot markaziy kengashida 1998-yildan 2009-yilga qadar raislik qilgan, marhum polkovnik Abdulaziz Abduqahhorovning oila a'zolari holidan xabar oldilar.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

✓ XALQARO HAMKORLIK

ILMIY-AMALIY SEMINAR muvaffaqiyatli o'tdi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasida AQShning "Nasco Healthcare" – tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantiruvchi simulyatorlar va Rossiya Federatsiyasining "Razvitiye" – elektron anatomik atlas dasturini hamda "Pirogov" stolini ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari ishtirokida ilmiy-amaliy seminar o'tkazildi.



Seminar nazariy va amaliy qismlardan iborat bo'lib, unda Harbiy tibbiyot akademiyasi rahbariyati, muassasa kursantlari va professor-o'qituvchilari, Markaziy harbiy klinik gospitali harbiy shifokorlari, shuningdek, kuch tuzilmalar, respublikamizdagi tibbiyot oliygohlari va boshqa hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Dastlab Harbiy tibbiyot akademiyasi rahbariyati va xorijdan kelgan mehmonlar o'rtasida davra suhbatlari tashkil qilindi. Unda kun tartibi va seminarni o'tkazish rejasi haqida so'z borib, tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar muhokama qilindi.

Seminarining maqsadidan kelib chiqib, uning nazariy qismida sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining ko'nikmalarini boyitishda stimulyatorlarning tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, "Nasco Healthcare" tashkiloti vakili Ed Perez tibbiyot xodimlarining malakasini mustahkamlashga samarali yordam beradigan loyihalar, yuqori texnologiyalar asosida yaratilgan simulyatorlar haqida chiqish qilgan bo'lsa, "Razvitiya" tashkiloti vakili Vadim Gvozdkov o'zi bilan birga olib kelgan 3D

anatomik interaktiv stoli – "Pirogov" va uning yangi dasturiy ta'minoti bilan seminar ishtirokchilarini yaqindan tanishtirdi.

Keyingi jarayonlar akademiyaning Tibbiy simulyatsiya o'quv-trening markazida kechdi. O'quv xonalarida odam anatomiyasini interaktiv usulda o'qitish, to'g'ri tashxis qo'yish, to'g'ri muolaja amaliyotini bajarish, favqulodda vaziyatlarda birinchi va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishga ahamiyat berildi. Ayniqsa, xorij mutaxassislari tomonidan olib kelingan, eng oxirgi texnologiyalar bilan ta'minlangan muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lgan birinchi simulyator maneken – "Alex" bilan tanishuv va uning imkoniyatlarini o'rganish barcha ishtirokchilar uchun birdek qiziq bo'ldi. Bundan tashqari, tez tibbiy yordamga muhtoj, yong'in yoki urush maydonlarida jabrlangan va yaralangan odamni imitatsiya qiluvchi robot-simulyator – "Randy" ustida amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Katta leytenant Muhammadjon XO'JAYEV

“Yangi nafas” ning g‘olib va sovrindorlari taqdirlandi

Yurtimiz bo‘ylab Mustaqilligimizning 32 yilligi munosabati bilan “Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqalari ko‘tarinki kayfiyatda o‘tkazildi.

“Bir Vatanda, bir vaqtda, bir masofaga, bir maqsadda birga yuguramiz” shiori ostida bo‘lib o‘tgan marafonda yurtdoshlarimiz, sportchilar, harbiylar, talaba-yoshlar, O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti xodimlari va sportchilari, qolaversa, qo‘shni Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston vakillari ham uyushqoqlik bilan ishtirok etishdi.

“Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqasida butun O‘zbekiston bo‘ylab 100 mingga yaqin ishtirokchi qatnashdi. 3 va 10 km masofaga yugurish shartlari bo‘yicha turli nominatsiyalar hamda faxrli o‘rinlarni egallaganlar diplom, esdalik nishonlari va pul mukofotlari bilan taqdirlandi.



Toshkent shahridagi “Milliy bog” majmuasida o‘tkazilgan taqdirlash marosimi estrada vakillari hamda Mudofaa vazirligi harbiy orkestrining kuy-qo‘shiqlari bilan yanada bayramona o‘tdi.

– Mazkur ommaviy yugurish sport musobaqasida 4-marotaba ishtirok etishim, – deydi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchisi Xurshid Rahimboyev. – O‘tgan yili kuchli o‘nlik tarkibiga kirgandim. Bu yil esa eng kuchli beshlik tarkibidaman. Keyingisida bundan ham yaxshi natijani ko‘rsatishga harakat qilaman.

Ro‘ziqul OCHILOV,
«Vatanparvar»



@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI



VATANPARVAR

MUASSIS



O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqdir qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo‘lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Hojimurodova

Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhah: Sayyora Meliqo‘ziyeva

Buyurtma: V-5574
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 498 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas‘ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 1-uy.